BIR BO‘LSAK — YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK — VATANMIZ!

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 148 (1209), 2024-yil 25-iyul, payshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI XORIJIY HAMKORLAR BILAN O‘ZARO MANFAATLI HAMKORLIKNI YANADA RIVOJLANTIRISH MASALALARINI MUHOKAMA QILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 24-iyul kuni qator xorijiy mamlakatlarning davlat rahbarlari va nufuzli siyosatchilari bilan telefon orqali muloqot qildi.

Xorijiy hamkorlar davlatimiz rahbarini tavallud kuni bilan samimiy qutlab, mustahkam sog‘liq va baxt-saodat, Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lidagi ortga qaytmas islohotlarni amalga oshirishda katta zafarlar, ko‘p millatli xalqimizga tinchlik-osoyishtalik, farovonlik va ravnaq tilaklarini izhor etdilar.

Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin bilan telefon orqali muloqotda O‘zbekiston — Rossiya keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlash masalalari muhokama qilindi.

Rossiya Federatsiyasi Prezidentining joriy yil 26-28-may kunlari O‘zbekiston Respublikasiga davlat tashrifi davomida erishilgan kelishuvlarni ro‘yobga chiqarishning amaliy jihatlariga alohida e’tibor qaratildi.

Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov bilan suhbatda O‘zbekiston bilan Turkmaniston o‘rtasidagi ko‘p qirrali, do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarining dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Yaqinda bo‘lib o‘tgan Hukumatlararo komissiya va Ishbilarmonlar kengashi yig‘ilishlarining samarali yakunlari mamnuniyat bilan qayd etildi.

Tovar ayirboshlashni yanada ko‘paytirish, yangi kooperatsiya loyihalarini ilgari surish va madaniy almashinuvni rivojlantirish muhimligi qayd etildi.

Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev bilan telefon orqali muloqotda amaliy hamkorlik jadal rivojlanib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Bo‘lajak oliy darajadagi ikki tomonlama tadbirlarga tayyorgarlik ko‘rish muhimligi ta’kidlandi.

Shuningdek, joriy yil avgust oyida Ostona shahrida o‘tkazilishi rejalashtirilgan mintaqa davlatlari rahbarlarining navbatdagi Maslahat uchrashuvi va “Markaziy Osiyo + Yaponiya” sammitini o‘tkazish masalalari ko‘rib chiqildi.

Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov bilan suhbatda O‘zbekiston bilan Qirg‘iziston o‘rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini yanada chuqurlashtirish va kengaytirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Qirg‘iziston Prezidentining yaqinda O‘zbekistonga davlat tashrifi davomida erishilgan kelishuvlar to‘plamini, shu jumladan, qo‘shma “yo‘l xaritasi” asosida o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish muhimligi qayd etildi.

Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon bilan telefon orqali muloqotda O‘zbekiston — Tojikiston strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqildi.

O‘zbekiston Prezidentining joriy yil 18-19-aprel kunlari Tojikistonga davlat tashrifi chog‘ida erishilgan, eng avvalo, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy sohalardagi kelishuvlarni amalga oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Davlat rahbarlari xalqaro kun tartibidagi dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar.

Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev bilan O‘zbekiston — Ozarbayjon do‘stlik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash masalalari ko‘rib chiqildi.

Ikkinchi Hududlar forumi, Hukumatlararo komissiya yig‘ilishi va qator qo‘shma madaniy tadbirlarning samarali yakunlari mamnuniyat bilan qayd etildi. Bo‘lajak oliy darajadagi uchrashuvlarning iqtisodiy kun tartibini puxta tayyorlash muhimligi qayd etildi.

O‘zbekiston va Ozarbayjon Prezidentlari mintaqaviy hamkorlikning muhim jihatlarini ham muhokama qildilar.

Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko bilan telefon orqali muloqotda joriy yil 7-9-fevral kunlari Belarus Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasiga tashrifi yakunlari bo‘yicha erishilgan kelishuvlarni qabul qilingan “yo‘l xaritasi” asosida amalga oshirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘an bilan O‘zbekiston — Turkiya keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash, jumladan, joriy yil 5-6-iyun kunlari Anqara shahriga oliy darajadagi tashrif chog‘ida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish masalalari muhokama qilindi.

Birlashgan Arab Amirliklari Vitse-prezidenti Shayx Mansur Ol Nahayon bilan telefon orqali muloqotda ustuvor yo‘nalishlarda amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari atroflicha ko‘rib chiqildi.

Suhbat avvalida shayx Mansur Ol Nahayon davlatimiz rahbariga Amirliklar Prezidenti Shayx Muhammad Ol Nahayonning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O‘zbekiston bilan BAA o‘rtasidagi ko‘p qirrali munosabatlar, eng avvalo, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy sohalarda jadal rivojlanib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Yaqin muloqotni davom ettirish va bo‘lajak oliy darajadagi uchrashuvlarga puxta tayyorgarlik ko‘rish muhimligi ta’kidlandi.

Rossiya Federatsiyasi Federal Majlisi Federatsiya Kengashi Raisi Valentina Matviyenko davlatimiz rahbarini tavallud kuni bilan samimiy muborakbod etib, mustahkam sog‘liq, baxt-saodat va davlatchilik faoliyatida yangi muvaffaqiyatlar tiladi.

Ikki mamlakat parlamentlarining samarali hamkorligi O‘zbekiston bilan Rossiya o‘rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini mustahkamlashga xizmat qilayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Qozog‘iston Respublikasining birinchi Prezidenti Nursulton Nazarboyev davlatimiz rahbarini tavallud kuni bilan samimiy tabriklab, mustahkam sog‘liq, oilaviy farovonlik va katta muvaffaqiyatlar tiladi.

Suhbat chog‘ida O‘zbekiston — Qozog‘iston yaxshi qo‘shnichilik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarining bugungi darajasiga yuksak baho berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nomiga uning tavallud kuni munosabati bilan xorijiy davlatlar, hukumatlar va parlamentlar, nufuzli xalqaro tashkilotlar, yetakchi xorijiy kompaniyalar rahbarlari, jamoat arboblaridan samimiy qutlovlar kelmoqda.

Xorijiy hamkorlar o‘z qutlovlarida O‘zbekiston Prezidentining ortga qaytmas siyosiy islohotlar va iqtisodiy yangilanishlar dasturini samarali amalga oshirishdagi yetakchiligi va shiddatini alohida qayd etgan. Milliy iqtisodiyotning sifat jihatidan o‘sishi, aholi farovonligining oshishi, davlatning xalqaro nufuzi sezilarli darajada mustahkamlanib, jahon mamlakatlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik kengayib borayotgani ham shundan dalolat beradi.

Shuningdek, mustahkam sog‘liq, baxt-saodat, mas’uliyatli va olijanob faoliyatida muvaffaqiyatlar, ko‘p millatli O‘zbekiston xalqiga tinchlik-osoyishtalik va ravnaq tilaklari bildirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga

Hurmatli Shavkat Miromonovich!

Sizni tavallud kuningiz bilan samimiy muborakbod etaman.

Prezidentlik faoliyatingiz bilan yurtdoshlaringiz o‘rtasida katta hurmat va yuksak xalqaro obro‘-e’tiborga sazovor bo‘ldingiz. Sizning rahbarligingizda O‘zbekiston ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda salmoqli yutuqlarga erishdi, jahon maydonida o‘z mavqeini mustahkamladi.

Davlatlarimiz o‘rtasidagi strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini, barcha yo‘nalishlarda samarali ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirishga qo‘shgan shaxsiy hissangiz beqiyosdir.

Yaqinda Toshkentda o‘tgan samarali muzokaralarimizni iliq eslayman. Rossiya va O‘zbekistonning do‘st xalqlari farovonligi yo‘lida konstruktiv muloqotni va yaqin hamkorlikni davom ettirishdan mamnunman.

Sizga chin dildan mustahkam sog‘liq, baxt-saodat, farovonlik va muvaffaqiyatlar tilayman.

Hurmat bilan,

Vladimir PUTIN,
Rossiya Federatsiyasi Prezidenti

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga

Muhtaram Prezident janoblari!

Tug‘ilgan kuningiz munosabati bilan Sizga eng samimiy tabriklarim va eng ezgu tilaklarimni izhor etishga ijozat bergaysiz.

Joriy yilning yanvar oyida Siz rafiqangiz bilan Xitoyga muvaffaqiyatli davlat tashrifini amalga oshirgan edingiz, bu tashrif davomida Siz bilan samarali va natijador muzokaralar olib bordik, ikki tomonlama munosabatlarni yangi davrda barcha sharoitda keng qamrovli strategik sheriklik darajasiga ko‘tarish va Xitoy — O‘zbekiston umumiy taqdirini yanada yuksak bosqichdan barpo etishimizga kelishib oldik hamda ikki davlat o‘rtasidagi barcha yo‘nalishlar bo‘yicha hamkorlikning yangi rejasini belgilab oldik. Yaqinda Ostona shahrida Shanxay hamkorlik tashkiloti sammiti doirasida uchrashuv o‘tkazdik va Xitoy — O‘zbekiston hamkorligi bo‘yicha yangi kelishuvlarga erishdik.

Xitoy — O‘zbekiston munosabatlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qarataman va Siz bilan mustahkam do‘stligimizni qadrlayman. Siz bilan birgalikda barcha sohalarda hamkorlikni rivojlantirish va Xitoy — O‘zbekiston munosabatlarini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha sa’y-harakatlarga tayyorman. Ishonchim komil, Sizning rahbarligingizda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan barcha maqsadlar, albatta, o‘z vaqtida amalga oshiriladi.

Si SZINPIN,
Xitoy Xalq Respublikasi Raisi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga

Hurmatli Prezident janoblari!

Tavallud kuningiz munosabati bilan Sizga eng samimiy tabriklarim va eng ezgu tilaklarimni yo‘llashga ijozat bergaysiz.

Sizga uzoq umr, mustahkam sog‘liq va muvaffaqiyatlar tilayman.

Chuqur hurmat bilan,

Narendra MODI,
Hindiston Respublikasi
Bosh vaziri

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga

Hurmatli Shavkat Miromonovich!

Tavallud kuningiz munosabati bilan samimiy tabriklarim va ezgu tilaklarimni qabul qilgaysiz!

Sizning bunyodkorona siyosatingiz va oqilona rahbarligingiz tufayli bugun Siz xalqingizning umume’tirof etilgan yetakchisi bo‘lib, xalqaro hamjamiyatda haqli ravishda katta obro‘-e’tiborga egasiz.

Ishonchim komil, Sizning strategik yo‘lingizga qat’iy amal qilib, muhim tashabbus va islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirib, qardosh o‘zbek xalqi farovon Yangi O‘zbekistonni barpo etishda Siz qo‘ygan yuksak maqsadlarga erishadi.

Mamlakatlarimiz va xalqlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va ko‘p qirrali hamkorlikni mustahkamlashga qo‘shayotgan ulkan shaxsiy hissangizni yuksak qadrlayman.

Qozog‘iston — O‘zbekiston strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini har tomonlama mustahkamlashga qat’iy intilishimni tasdiqlar ekanman, Sizga, hurmatli Shavkat Miromonovich, bitmas-tuganmas kuch-g‘ayrat, oilaviy farovonlik va qardosh O‘zbekiston ravnaqi yo‘lidagi mas’uliyatli faoliyatingizda yangi muvaffaqiyatlar tilayman.

Hurmat bilan,

Qosim-Jomart TOQAYEV,
Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti

Davomi 2-betda

SAMIMIY MINNATDORLIK

Tavallud kunim munosabati bilan chin dildan qutlab, o‘zlarining samimiy tabriklari va ezgu tilaklarini yo‘llagan xorijiy davlatlar, hukumat va parlamentlar rahbarlari, siyosat va jamoat arboblari, ishbilarmon doiralar vakillariga, xalqaro tashkilotlar yetakchilariga, yurtimizdagi mahallalar ahli va mehnat jamoalariga, barcha vatandoshlarimga chuqur minnatdorlik izhor etaman.

Mening sha’nimga bildirilgan ushbu tabrik va tilaklarni, eng avvalo, O‘zbekiston xalqi va davlatiga yuksak hurmat va ehtirom, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarga va yurtimizning yorug‘ kelajagiga bo‘lgan ishonch ifodasi sifatida qabul qilaman.

Fursatdan foydalanib, mehnatkash, bag‘rikeng va olijanob xalqimizga yana bir bor chin yurakdan o‘zimning cheksiz farzandlik mehrim va hurmatimni bildiraman.

Ishonchim komil, el-yurtimizning fidokorona mehnati, ulkan bunyodkorlik salohiyati va hamjihatligi bilan Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha o‘z oldimizga qo‘ygan buyuk maqsadlarga albatta yetamiz.

Chuqur hurmat bilan,

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

BUYUK O‘ZBEK YO‘LI

IJTIMOIY QARZDORLIK HISSI: UNING MOHIYATI NIMADA?

Xizmat vazifam taqozosiga ko‘ra, ko‘proq odamlar orasida bo‘lishga intilaman. Turli viloyatlar, rang-barang qishloq va ovullar, turfa fe’l-atvorli, mansabiyu lavozimi har xil kishilar bilan muloqotda bo‘laman. Ularning kayfiyati, jamiyat va davlatga munosabatini bilishga, fikrlaridan aniq, xolis xulosalar chiqarishga harakat qilaman. Bu — o‘ta qiziq va foydali mashg‘ulot. Kuzatuv natijalaridan foydalanish shaxsiy hayotiy tamoyillarimni shakllantirish, ro‘y berayotgan global va lokal jarayonlar mohiyatini anglash, jamiyat va davlat taraqqiyotiga munosabatlarimni belgilashda juda qo‘l kelyapti.

Keyingi yillarda, ayniqsa, so‘nggi 7-8 yilda O‘zbekistonda davlat va xalq birligi, maqsadlar mushtarakligi, taktik va strategik rejalarni amalga oshirishdagi yakdillik, o‘zaro hamjihatlikni ko‘rib, ko‘z quvonadi. Bir tomondan, mamlakatimiz hukumati o‘z oldiga qo‘ygan yirik maqsadlarni amalga oshirishda sobitqadamlik bilan harakat qilayotgan bo‘lsa, boshqa jihatdan, xalqimizning bu jarayondagi ishtiroki tobora ortib bormoqda. Xalqimizning shaxsiy, xususiy manfaatlarini davlat va jamiyat manfaatlari bilan bevosita bog‘layotgani, nazarimda, barcha yutuqlarimizning garovi sifatida tushunilishi lozim.

Davomi 3-betda

OZODLIK BAYRAMI NAVQIRON YOSHDA

Dunyo bizni yangitdan tanidi va tan oldi

Mustaqillik bayramida har bir o‘zbekistonlikning o‘z o‘rni bor. Bu bayram boshqalariga o‘xshamaydi. Chunki u hurriyat, ozodlik bayrami!

Hech mubolag‘asiz: bu bayramni jon-dildan sevaman. Uni oshiq dil bilan har yili mushtoq bo‘lib kutaman. Chunki menga uning teran kelbatidan necha-necha ajdodlarning “Ozodlik! Tenglik! Egamenlik!” deya tinmagan hayqiriqlari, qat’iyatli, talabchan, irodali sadolari kelib turadi. Uning qa’ridan Fitratning “orqaga yo‘l yo‘q” degan o‘lmas “Sayha!” ovozi butun jahonga xuddi millatimiz erk nashidasi kabi guldirak soladi.

O‘ttiz uch yil avval tarixning o‘ta saodatli damida millat shu mislsiz haq-huquqqa nihoyat muyassar bo‘la oldi. Shuning uchun O‘zbekistonning mustaqillik bayrami tarixiy jihatdan mislsiz yutuqdir. Ammo bizning asosiy milliy bayramimiz — Mustaqillik kuni tarix va jahon oldida hali juda yosh. Uning shu yoshligida yana butun shukuhi va sururi mujassam! Kurashchi ma’rifatparvar ajdodlar qonu jon barobariga uni qanchalik orzulagan, yetmoq uchun hayot-mamot janglariga kirgan edi. Ularning orzu-umidlari ro‘yobga chiqdi. Buni ko‘rish ularning nasllariga nasib etdi.

Davomi 2-betda

Ozodlik tuyg‘usi bizni o‘zining poyonsiz ijtimoiy-madaniy tamadduniy yuksakligiga ko‘tardi. Biz endi bo‘yimizni uning bo‘yiga qarab o‘lchayapmiz. Uning aql-idrokiga qarab idrokimiz va tafakkurimizni charxlayapmiz, aniqlashtiryapmiz, sayqallayapmiz, necha asrlar yetolmagan orzularimizga yetishga chog‘lanyapmiz. Rang-barang islohotlar ichida ilgari hech ko‘rilmagan, aql-idrokimiz yetib borolmagan hodisotlarni kashf etmoqdamiz.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 25-iyul, 148-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI XORIJIY HAMKORLAR BILAN O‘ZARO MANFAATLI HAMKORLIKNI YANADA RIVOJLANTIRISH MASALALARINI MUHOKAMA QILDI

Boshlanishi 1-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga

Hurmatli Shavkat Miromonovich!

O‘zbekiston Respublikasiga davlat tashrifim yuksak darajada tashkil etilgani va Qirg‘iz Respublikasi delegatsiyasiga ko‘rsatilgan samimiy mehmondo‘stlik uchun dildan minnatdorlik bildiraman.

Siz bilan poytaxtingiz Toshkentda va O‘zbekistonning gavhari — qadimiy Xiva shahrida o‘tgan uchrashuvlarimizni iliq hissiyotlar bilan eslayman.

Xiva ahlining samimiy qabuli, shuningdek, “Muzey-shahar” nomini olgan Xiva shahrining tarixiy, madaniy va me’moriy obidalari katta taassurot qoldirdi.

Biz O‘zbekistonda misli ko‘rilmagan yutuqlar va ulkan o‘zgarishlarga guvoh bo‘ldik. Ishontirib aytmoqchimanki, mamlakatingizga tashrifim doirasidagi voqealar qalblarimizda yorqin va yoqimli xotiralar qoldirdi.

Qirg‘iziston va O‘zbekiston xalqlarining chuqur tarixiy aloqalari va mushtarak milliy-ma’naviy qadriyatlari bugungi kunda o‘zaro manfaatli hamkorligimiz uchun mustahkam zamin yaratdi.

Siz bilan samimiy va ishonchli shaxsiy munosabatlarimiz bundan buyon ham mamlakatlarimiz o‘rtasidagi ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish omili bo‘lib qoladi.

Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi har tomonlama strategik sheriklikni do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik ruhida rivojlantirish masalalariga shaxsan e’tiboringizni yuksak qadrlayman.

Hurmatli Shavkat Miromonovich, Sizning timsolingizda hamfikr, sadoqatli va yaqin do‘stimni topganimdan juda xursandman.

Toshkent va Xivada o‘tgan uchrashuvlarimiz yakunida erishilgan barcha kelishuvlar to‘liq amalga oshirilishiga ishonaman.

Ishonchim komilki, davlat tashrifi yakunlari bo‘yicha imzolangan ikki tomonlama hujjatlarning amalga oshirilishi siyosiy, savdo-iqtisodiy, energetika, transport, investitsiya, ilmiy-texnikaviy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalardagi munosabatlarni izchil rivojlantirishga yangi sur’at bag‘ishlaydi.

Biz qardosh xalqlarimiz o‘rtasidagi yaqin va do‘stona munosabatlarni, ularning farovonligi yo‘lida har tomonlama hamkorlikni yangi kuch va yangi ruh bilan davom ettiramiz, deb ishonaman.

Hurmatli Shavkat Miromonovich, Sizni tug‘ilgan kuningiz bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

Sizga mustahkam sog‘liq, baxt-saodat, uzoq umr, davlat ishlarida muvaffaqiyatlar, qardosh O‘zbekiston xalqiga esa tinchlik-osoyishtalik va ravnaq tilayman.

Chuqur hurmat ila,

Sadir JAPAROV,
Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga

Qadrli Shavkat Miromonovich!

Tavallud kuningiz munosabati bilan eng samimiy tabriklarim va eng ezgu tilaklarimni qabul qilishingizni so‘rayman.

Sizning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimidagi samarali faoliyatingiz va O‘zbekiston xalqiga fidokorona xizmatingiz mamlakatingizda ham, uning tashqarisida ham munosib obro‘-e’tibor va hurmatga sazovor bo‘ldi.

Biz Sizning uzoqni ko‘zlagan rahbarligingizda qardosh O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va xalqaro maydondagi nufuzini izchil mustahkamlash yo‘lidagi keng ko‘lamli yutuqlaridan chin dildan mamnunmiz.

Sizning Tojikiston va O‘zbekiston o‘rtasidagi do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va barcha yo‘nalishlarda o‘zaro manfaatli konstruktiv hamkorlik munosabatlarini sifat jihatidan ilgari surish masalalariga doimiy e’tiboringizni yuksak qadrlayman. Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi yaqin aloqalar va Siz bilan samimiy, chuqur ishonchga asoslangan shaxsiy munosabatlarni qadrlayman.

Sizning Tojikistonga davlat tashrifingizning samarali natijalarini alohida ta’kidlamoqchiman. Tarixiy Ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risidagi shartnomaning imzolanishini keyingi yillardagi birgalikdagi sa’y-harakatlarimizning mantiqiy natijasi, deb bilaman.

Dushanbe shahridagi muzokaralarimiz davomida erishilgan kelishuvlarning izchil amalga oshirilishi mamlakatlarimiz o‘rtasidagi strategik sheriklik va ittifoqchilik ruhidagi hamkorlikni yanada mustahkamlashga har tomonlama xizmat qilishiga ishonaman.

Sizga, aziz do‘st va birodarim, chin qalbimdan mustahkam sog‘liq, baxt-saodat, oilaviy farovonlik hamda do‘st O‘zbekiston xalqining barqaror taraqqiyoti va ravnaqi yo‘lidagi faoliyatingizda yangi ulkan muvaffaqiyatlar tilayman.

Yuksak hurmat bilan,

Emomali RAHMON,
Tojikiston Respublikasi Prezidenti

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga

Hurmatli Shavkat Miromonovich!

Tavallud kuningiz munosabati bilan samimiy tabriklarim va eng ezgu tilaklarimni qabul qilgaysiz.

Sizning qardosh O‘zbekiston Respublikasi ravnaqi va xalq farovonligi yo‘lidagi sa’y-harakatlaringiz va tinimsiz mehnatingiz haqiqiy vatanparvarlik va o‘z Vataniga fidokorona xizmat qilishning yorqin namunasidir.

Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi strategik sheriklik va yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini rivojlantirishga shaxsan e’tiboringizni alohida qayd etmoqchiman. Samimiy do‘stlik va o‘zaro anglashuvni mustahkamlashga qo‘shayotgan ulkan hissangiz uchun Sizga samimiy minnatdorlik bildiraman.

Fursatdan foydalanib, hurmatli Shavkat Miromonovich, qadrli birodarim, Sizga chin qalbimdan mustahkam sog‘liq, baxt-saodat va oilaviy farovonlik, qardosh O‘zbekiston xalqiga esa tinchlik-osoyishtalik, taraqqiyot va ravnaq tilayman.

Chuqur hurmat bilan,

Gurbanguli BERDIMUHAMEDOV,
Turkman xalqining milliy yetakchisi,
Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga

Hurmatli Shavkat Miromonovich!

Tavallud kuningiz munosabati bilan samimiy tabriklarim va eng ezgu tilaklarimni qabul qilgaysiz.

Shuni katta mamnuniyat bilan ta’kidlashni istardimki, yaxshi qo‘shnichilik, do‘stlik va o‘zaro anglashuv tamoyillariga asoslangan Turkmaniston — O‘zbekiston munosabatlari yil sayin yangi mazmun bilan boyib bormoqda, ular o‘zaro katta ishonch va ochiqlik bilan ajralib turadi.

Biz mamlakatlarimiz o‘rtasidagi vaqt sinovidan o‘tgan siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalarni bundan buyon ham kengaytirish niyatidamiz. Birgalikdagi sa’y-harakatlar bilan Turkmaniston — O‘zbekiston davlatlararo munosabatlari va strategik sherikligi bundan buyon ham qardosh xalqlarimiz farovonligi yo‘lida izchil rivojlanib borishiga qat’iy ishonamiz.

Fursatdan foydalanib, Sizga chin qalbimdan mustahkam sog‘liq, baxt-saodat, oilaviy farovonlik va davlatchilik faoliyatingizda yangi muvaffaqiyatlar, qardosh O‘zbekiston xalqiga esa tinchlik-osoyishtalik, taraqqiyot va ravnaq tilayman.

Chuqur hurmat bilan,

Serdar BERDIMUHAMEDOV,
Turkmaniston Prezidenti

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga

Qadrli Shavkat Miromonovich, aziz og‘am!

Sizni tavallud kuningiz bilan chin qalbimdan tabriklab, mustahkam sog‘liq, uzoq umr, baxt-saodat, muvaffaqiyatlar va qardosh O‘zbekiston davlati hamda xalqining farovonligi va ravnaqi yo‘lidagi faoliyatingizda tuganmas kuch-g‘ayrat tilayman.

Mamlakatingizda uzoqni ko‘zlagan va qat’iy rahbarligingiz ostida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlar va islohotlar natijasida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishildi, O‘zbekistonning jahon miqyosidagi obro‘-e’tibori va mavqei yanada mustahkamlandi. Mamlakatingizning ham ichki, ham tashqi miqyosdagi yutuq va marralari sizlarning puxta o‘ylangan qadamlaringiz, oqilona siyosatingiz va kuchli irodangiz natijasidir. Ozarbayjon O‘zbekistonning barcha yutuqlarini katta shodlik va g‘urur bilan kutib olmoqda.

Ozarbayjon — O‘zbekiston do‘stligi va qardoshligini mustahkamlashda, umumiy diniy, madaniy va tarixiy ildizlar bilan bog‘langan xalqlarimiz irodasini aks ettiruvchi noyob davlatlararo munosabatlarimizni har tomonlama rivojlantirishda, yangi mazmun bilan boyitish va uni hozirgi darajaga ko‘tarishda Sizning o‘rningiz beqiyosdir.

Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi oliy darajadagi tashriflar muntazamlik kasb etayotgani meni juda quvontiradi. Shu ma’noda Shushadagi uchrashuvimiz, samimiy fikr almashganimiz, shaharning tarixiy va me’moriy obidalari, bu yerda amalga oshirilgan keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlari bilan tanishganimizni eslayman. Ishonchim komilki, biz imzolagan “Qorabog‘ deklaratsiyasi” turkiy dunyo hamjihatligini va qardoshlik aloqalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Umumiy tariximiz va boy ma’naviy qadriyatlarimiz bilan mustahkamlangan yaqin munosabatlarimiz va strategik sherikligimiz xalqlarimiz irodasiga muvofiq birgalikdagi sa’y-harakatlarimiz bilan bundan buyon ham rivojlanib, mustahkamlanib borishiga ishonaman.

Muhtaram Shavkat Miromonovich, men shaxsiy munosabatlarimizni, do‘stligimizni, bir-birimizga bo‘lgan chuqur hurmat va ehtiromimizni hamisha qadrlayman, o‘zaro ishonch va qo‘llab-quvvatlashga asoslangan birgalikdagi ishlarimizdan, doimiy aloqalarimizdan mamnunman.

Ushbu qutlug‘ ayyomda Sizni yana bir bor chin qalbimdan tabriklab, eng ezgu tilaklarimni izhor etaman.

Hurmat bilan,

Ilhom ALIYEV,
Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga

Hurmatli Shavkat Miromonovich!

Sizni tavallud kuningiz bilan chin qalbimdan tabriklayman.

O‘zbekiston Respublikasini barqaror rivojlantirish siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirish, uning xalqaro maydondagi ta’sirini oshirish zamirida Sizga xos bo‘lgan yetakchilik fazilatlari, qat’iyat va kuchli vatanparvarlik hissi yotadi.

Joriy yil fevral oyida mamlakatingizga amalga oshirilgan oliy darajadagi tashrif ikki tomonlama hamkorlikni, barcha darajalarda kooperatsiya aloqalarini mustahkamlash borasidagi mushtarak intilishlarimizni yana bir bor tasdiqladi.

Biz bundan buyon ham Toshkent bilan munosabatlarni do‘stlik va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash ruhida davom ettirishni maqsad qilganmiz.

Hurmatli Shavkat Miromonovich, Sizga va yaqinlaringizga tinchlik-osoyishtalik, oilangiz va do‘stlaringiz Sizga tayanch bo‘lishini, xizmatiga butun umringizni bag‘ishlagan O‘zbekistonga esa farovonlik va ravnaq tilayman.

Sizni mehmondo‘st Belarus zaminida qutlashdan mamnun bo‘laman.

Hurmat bilan,

Aleksandr LUKASHENKO,
Belarus Respublikasi Prezidenti

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga

Prezident janoblari, qadrli birodarim!

Tavallud kuningiz bilan chin qalbimdan muborakbod etib, Siz Janobi Oliylariga yaqinlaringiz bilan birgalikda sihat-salomatlik va osoyishtalikka to‘la uzoq umr tilayman.

Mushtarak tariximiz va chuqur ildiz otgan rishtalarimizdan kuch oluvchi munosabatlarimiz Siz Janobi Oliylarining ulkan hissasi tufayli ikki va ko‘p tomonlama shakllarda, jumladan, Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida ham jadal rivojlanayotgani bizga cheksiz quvonch bag‘ishlaydi.

O‘tgan oy Siz bilan birgalikda o‘tkazgan Turkiya — O‘zbekiston Oliy darajadagi strategik hamkorlik kengashining III yig‘ilishi asnosida yurtimizga amalga oshirgan tashrifingizdan bag‘oyat mamnun bo‘ldim. Do‘stlik va birodarlikka tayangan yaqin munosabatlarimiz kelgusida ham barqaror ravishda mustahkamlanishda davom etishiga bo‘lgan ishonchimni yana bir bora ta’kidlashni istardim.

Fursatdan foydalanib, Siz Janobi Oliylariga sihat-salomatlik, baxt-saodat, do‘st va birodar o‘zbek xalqiga farovonlik va omonlik tilayman.

Chuqur hurmat bilan,

Rejep Tayyip ERDOG‘AN,
Turkiya Respublikasi Prezidenti

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga

Janobi Oliylari!

Sizni qutlug‘ 67 yoshingiz bilan chin qalbimdan muborakbod etishga ijozat bergaysiz.

O‘tgan oyda amalga oshirgan davlat tashrifim tufayli Siz bilan birgalikda do‘stligimizni mustahkamlaganimiz, shuningdek, Koreya Respublikasining Markaziy Osiyodagi yagona alohida strategik sherigi bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi bilan strategik munosabatlarni chuqurlashtirganimizdan bag‘oyat mamnunman.

Bundan buyon ham Koreya — O‘zbekiston munosabatlari rivojlanib, kelajakka yo‘naltirilgan o‘zaro manfaatli hamkorlik yanada kengayishiga Siz doimiy e’tibor qaratasiz va qo‘llab-quvvatlaysiz, deb umid qilaman.

Sizga mustahkam sog‘liq va baxt-saodat, O‘zbekiston Respublikasiga esa abadiy farovonlik tilayman.

Yun Sok YOL,
Koreya Respublikasi Prezidenti

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga

Aziz do‘stim, muhtaram Prezident janoblari!

Sizni tavallud kuningiz bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

Sizning uzoqni ko‘zlagan va dono rahbarligingiz tufayli O‘zbekiston Respublikasi taraqqiy etayotgani, mamlakatingizning mintaqadagi va xalqaro maydondagi obro‘-e’tibori tobora yuksalib borayotganini mamnuniyat bilan ta’kidlamoqchiman.

Men rafiqam bilan birga Sizning go‘zal mamlakatingizga — ulug‘vor tog‘lar va zilol suvli daryolar yurtiga davlat tashrifini amalga oshirganimdan, Siz Prezident Janobi Oliylari va Ziroatxon Mirziyoyeva Janobi Oliyalari bilan samimiy muloqotdan g‘oyat mamnunman, bu ikki mamlakat o‘rtasidagi tarixiy, an’anaviy va do‘stona munosabatlarni yanada mustahkamlashga xizmat qildi.

Muhtaram Prezident janoblari, Siz va rafiqangizni boy tariximiz, betakror madaniyatimiz va ko‘chmanchi xalqimiz beshigi bo‘lgan go‘zal yurtimizga o‘zingizga qulay vaqtda davlat tashrifi bilan kelishga yana bir bor taklif etishdan g‘oyat mamnunman.

Xalqlarimiz o‘rtasidagi ko‘p asrlik do‘stlik mustahkamlanib, Mo‘g‘uliston va O‘zbekiston o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlik doimo rivojlanib borsin.

Sizga va baxtiyor oilangizga mustahkam sog‘liq, baxt-saodat va farovonlik, O‘zbekiston xalqiga esa ravnaq tilayman.

Chuqur hurmat bilan,

Uxnaagiyn XURELSUX,
Mo‘g‘uliston Prezidenti

Quyidagilar ham o‘z tabriklarini yo‘llagan:

Qozog‘iston Respublikasining birinchi Prezidenti **Nursulton Nazarboyev,**
Qatar Davlati Amiri Shayx **Tamim bin Hamad Ol Soniy,**
Italiya Respublikasi Prezidenti **Serjo Mattarella,**
Birlashgan Arab Amirliklari Vitse-prezidenti, Bosh vaziri, Dubay Amirligi hokimi Shayx **Muhammad bin Roshid Ol Maktum,**
Birlashgan Arab Amirliklari Vitse-prezidenti, Bosh vaziri o‘rinbosari, Prezident Devoni raisi Shayx **Mansur bin Zoid Ol Nahayon,**
Parlamentlararo ittifoq bosh kotibi **Martin Chungong,**
Xalqaro mehnat tashkiloti bosh direktori **Jilber Ungbo,**
Jahon savdo tashkiloti bosh direktori **Ngozi Okonjo-Iveala,**
Shanxay hamkorlik tashkiloti bosh kotibi **Chjan Min,**
Turkiy davlatlar tashkiloti bosh kotibi **Kubanichbek Omuraliyev,**
Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi bosh kotibi **Sergey Lebedev,**
Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti bosh kotibi **Xusrav Noziriy,**
Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki prezidenti **Odil Reno-Basso,**
Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki prezidenti **Szin Lisyun,**
Ipak yo‘li fondi raisi **Chju Szyun,**
Xalqaro futbol federatsiyasi (FIFA) prezidenti **Janni Infantino.**

Qutlovlar kelishda davom etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga

Muhtaram Prezident janoblari!

Tug‘ilgan kuningiz munosabati bilan eng samimiy tilaklarimni izhor etishga ijozat bergaysiz.

Shushadagi so‘nggi uchrashuvimizni iliqlik bilan eslayman, uning yakunlarini sarhisob qilar ekanman, O‘zbekiston nafaqat ishonchli hamkor, balki mamlakatimizning samimiy do‘sti ekanini qat’iy ta’kidlayman. Siz bilan ochiq hamkorlik tufayli keyingi yillarda Vengriya — O‘zbekiston munosabatlari yanada kengayib, misli ko‘rilmagan darajaga ko‘tarilgani meni quvontiradi.

Janob Prezident, munosabatlarimizni mustahkamlashga sodiqligingiz uchun g‘oyat minnatdorman. Sizni ishontirib aytamanki, kelgusida ham Siz bilan hamkorlikda ikki tomonlama munosabatlarda yangi-yangi yutuqlarga erishish uchun barcha zarur choralarni ko‘rishda davom etaman.

Sizga mustahkam sog‘liq va faoliyatingizda katta muvaffaqiyatlar tilayman!

Samimiyat ila,

Viktor ORBAN,
Vengriya Bosh vaziri

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga

Muhtaram Prezident janoblari, aziz birodarim!

Ushbu qutlug‘ kunda Sizga eng samimiy tabriklarimni yo‘llayman.

Yaqindagina Toshkentga amalga oshirgan tashrifim chog‘ida ko‘rsatgan bag‘rikeng mehmondo‘stligingiz uchun yana bir bor chuqur minnatdorlik bildirmoqchiman.

O‘zimning eng samimiy salomim va chuqur minnatdorligim bilan,

Antoniu GUTERRISH,
Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi

Ibrohim G‘AFUROV,
O‘zbekiston Qahramoni

Bir bo‘lsak — yagona xalqmiz, birlashsak — Vatanmiz!

OZODLIK BAYRAMI NAVQIRON YOSHDA

Dunyo bizni yangitdan tanidi va tan oldi

Boshlanishi 1-betda

O‘zbekiston dunyoning har tomonlama teng, o‘z iqtidoriga ega davlatlari qatoriga kirdi. Bugun mamlakatimiz umuminsoniyat taraqqiyotiga hissa qo‘shmoqda. Turli tahdid, tahlikalarga qarshi yelkama-yelka turib kurashga bel bog‘lamoqda. Shuning uchun uni tarixan mislsiz milliy bayram, desak, har tomonlama arziydi.

Ozodlik tuyg‘usi bizni o‘zining poyonsiz ijtimoiy-madaniy tamadduniy yuksakligiga ko‘tardi. Biz endi bo‘yimizni uning bo‘yiga qarab o‘lchayapmiz. Uning aql-idrokiga qarab idrokimiz va tafakkurimizni charxlayapmiz, aniqlashtiryapmiz, sayqallayapmiz, necha asrlar yetolmagan orzularimizga yetishga chog‘lanyapmiz. Rang-barang islohotlar ichida ilgari hech ko‘rilmagan, aql-idrokimiz yetib borolmagan hodisotlarni kashf etmoqdamiz.

Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz uch yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarorini o‘qir ekanman, “Dunyo bizni yangitdan tanidi va tan oldi” degan yombi so‘zdan ta’sirlandim. Tanilish va tan olinish oson kechmadi. Zero, kishanlarni uzish va boshqa hech qachon takrorlanmaydigan qilib parchalash kerak bo‘ldi. Xalqimizning layoqat va iqtidoriga balli! Bularni qoyilmaqom uddalay oldi. Girdoblar, o‘pqonlar, po‘rtanalardan chiqdik. O‘zimizda ilgari ko‘rilmagan yangi layoqat va ishbilarmonlikni tarbiyalay oldik. Lekin hali ham anoyilik, birdan boyib ketishdek xomxayollar yo‘q emas.

Kuni kecha salkam 900 ming yigit-qiz oliy ta’lim uchun test topshirdi. Qalay bo‘ldi, deb so‘rang? So‘rang, ulug‘ bayram oldidan! Haqiqiy bilimlar g‘olib chiqdimi yo soxta uyat hisob-kitoblar! Buni hisoblab chiqarish qiyin ish emas. Kompyuterni aldash, laqillatish juda qiyin. Xo‘sh, ayting, qanday ta’lim olgan ekanmiz! Qayga yetib bordi niyat-u xomcho‘tlarimiz? Hamma o‘qisin deyilayotgan zamonda beparvo yashashdan uyalaylik!

Uzun gaplardan lo‘nda va dilovar xulosalarga kelaylik. Loaqal keyingi bir yilda xarajat qancha bo‘ldi? Daromad, ziyon qancha-yu, foyda qancha? Bayramoldi va bayramimizda ko‘nglimiz bir parvoz qilsin, avval ko‘tarilmagan balandliklarga ko‘tarilsin, musaffo havodan o‘pkani to‘ldirib nafas olaylik. Yangi ulkan marralarga jazm qilib intilaylik. Intilishlarimizdan yana yangi intilishlar paydar-pay kelib chiqsin.

Eng muhimi, bayram uchun yangidan yangi ijodiy kuchlarimizni safarbar qilaylik. Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz uch yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarori professional mahorat va tajribani ishga solishga da’vat etyapti. O, bularni to‘la yuzaga chiqarish uchun erkin ijodiy yondashuv naqadar zarur! Yangi qo‘shiqlar, yangi ohangrabo musiqa asarlari go‘zal maydonlarimizda baralla yangrasin. Chin mustaqillik bayrami, insoniylik, yaxshilik bayrami bo‘lsin. Bu bayramda kuchga to‘lgan yigit-qizlar ham, piru badavlat nuroniylar ham, o‘rta yosh zavqini surayotgan azamatlar ham jon-dildan yayrasin, barcha insoniy go‘zalliklarini to‘la namoyon qilsin. Biz mustaqilligimiz bayramini shunday shodiyonaga aylantiraylik. Toki Vatanimiz shamolida hilpiragan ozodlik, milliy hurlik bayroqlari bizga havas qilsin: “Ha, sening qonuniy hur bayrog‘ingman!” desin.

Muqaddas tuproqda turib xayolimga bir fikr keldi. Bu — mening, bizning, barchamizning yashash, mehnat qilish, o‘qish-o‘rganish, ijod bilan shug‘ullanishimiz yo‘lida yaratilgan qulay sharoitlar uchun davlat, jamiyat, mamlakat rahbariyati oldidagi ijtimoiy qarzdorlik hissi bilan bog‘liq masala.

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

2024-yil 25-iyul, 148-son

Ijtimoiy qarzdorlik fenomeni inson ruhiyatidagi ikki muhim qadriyat — shukr va sabr asosida real kuchga aylanadi. Xalqimiz azaldan ushbu qadriyatlarni qadrlab, ularga so‘zsiz amal qilib kelgan. Har ikki qadriyat xalqimizga quvonchli va tashvishli kunlarida ma’naviy madad, kuch bergan, turli balo-qazolarning oldini olishda ruhlantirib turgan.

IJTIMOIY QARZDORLIK HISSI: UNING MOHIYATI NIMADA?

Abduxalil MAVRULOV,
tarix fanlari doktori, professor

Boshlanishi 1-betda

Buni davlatimiz rahbarining Farg‘ona viloyatiga tashrifi natijalaridan ham bilsa bo‘ladi. Keling, yaxshisi, bu bo‘yicha ba’zi misollarga murojaat qilaylik. Keyingi 7 yilda Farg‘ona viloyatiga 77 trillion so‘mlik investitsiya jalb etildi. Natijada 116 ming ish o‘rni va 4,5 milliard dollarlik eksport imkoniyati yaratildi.

Viloyatda xorijiy investorlar va mahalliy tadbirkorlar tomonidan umumiy qiymati 7 milliard dollardan ziyod 132 ta loyiha shakllantirilgan. Shundan 2,1 milliard dollarlik 25 ta loyiha tashrif davomida davlatimiz rahbariga taqdimot qilindi. Loyihalarga Avstriya, AQSH, Xitoy, Rossiya, Turkiya, Germaniya, Saudiya Arabistoni, Kuvayt, Yaponiya va Ozarbayjon kabi davlatlar kompaniyalari investitsiya kiritmoqda. Ular to‘qimachilik, oziq-ovqat, tibbiyot, elektrotexnika, qurilish materiallari, xizmat ko‘rsatish va boshqa tarmoqlarni qamrab olgan.

Mazkur tashrifda mamlakat rahbari viloyat aholisining turmush tarzi, tafakkur olami, yashash sharoitida yuz berayotgan tub o‘zgarishlarga alohida e’tibor qaratgan holda, bu o‘zgarishlar, yangilanishlar zamirida xalqimiz zo‘r fidoyilik bilan bajarayotgan ishlar, barcha sohada mamlakat va millat kelajagini o‘ylab tuzilayotgan ulkan strategik maqsadlar yotganini alohida ta’kidladi. Prezidentimizning **“O‘sdik, rivojlandik, investorlarni ishontirdik, sharoit yaratdik. Bunday ishlarni yana davom ettiramiz”**, deyishi mamlakatimiz tanlangan yo‘ldan aslo chekinmasligi, faqat olg‘a borishi haqidagi da’vat sifatida tushunildi.

Bir fuqaro sifatida men xuddi shunday tushundim. Bu jarayonlar vaqtinchalik, tasodifiy emas, davomiylik, vorisiylik tavsifiga ega bo‘lib borayotganini barcha ko‘rib, sezib turibdi. Nafaqat sezib turibdi, ayni paytda shu ortga qaytmas jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylanib ham bo‘ldi.

Shu o‘rinda ikki o‘ta muhim masalaga e’tibor berish kerak, deb o‘ylaymiz. Birinchidan, davlat o‘z xalqi oldida uning moddiy farovonligini yaxshilash, turmush darajasini oshirish, munosib hayot sharoitini shakllantirish, pirovard natijada qulay ijtimoiy-ma’naviy muhit yaratish bo‘yicha bergan va’dalarini qay darajada uddalamoqda, islohotlardan fuqarolarning qoniqish holati qanday?

Ikkinchidan, ana shu tub o‘zgarishlar, jahonda ro‘y berayotgan turli ziddiyatlar, siyosiy-mafkuraviy kelishmovchiliklar, mintaqalararo va davlatlararo manfaatlar to‘qnashuviga qaramay, yangi O‘zbekiston hukumati, avvalo, mamlakat rahbarining oqilona va oldindan ko‘ra bilish salohiyatiga ega ekani natijasida qo‘lga kiritilayotgan yutuqlarga xalqimizning munosabati qay tarzda yuz beryapti? Mazkur masala, ta’bir joiz bo‘lsa, barcha davlatlar siyosatining tub mazmun-mohiyatini tashkil etadi.

Birinchi masalaga javob bugungi yangi O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy hayotidagi islohotlar, xalqimiz hayotidagi o‘zgarishlar tufayli yaqqol ko‘zga tashlanib turibdi. Yaxshisi, ularning ayrimlariga izoh bermasdan, faqat eslab o‘tish kifoya, deb o‘ylaymiz. Mana, ulardan ba’zilari:

— mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo‘ydi, inson manfaati hamma narsadan ustun darajaga ko‘tarildi. **Bu jihat yangi tahrirdagi Konstitutsiyada O‘zbekiston suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat sifatidagi maqomga egaligida o‘z aksini topdi;**

— inson, uning haq-huquqlari va baxt-saodati davlat siyosati, barcha davlat organlari faoliyatining eng ustuvor va asosiy maqsadiga aylandi. Jamiyat qurilishi va davlat boshqaruvida ana shu muhim va ezgu g‘oyaga suyanilmoqda. Bunday siyosat **“Davlat — inson uchun”** va **“Inson — jamiyat — davlat”** tamoyili asosida yuritilmoqda;

— yangi O‘zbekiston milliy iqtisodiyotining eng muhim va ustuvor yo‘nalishi bo‘lgan sanoat sohasini rivojlantirish asosiy vazifaga aylandi. O‘zbekiston **“agrar-industrial davlat”**dan **“industrial-agrar davlat”**ga aylandi;

— mamlakat rahbariyati katta siyosiy iroda ko‘rsatib, muayyan vaqt davomida to‘planib qolgan qator xato va kamchiliklarni e’tirof etishdan qo‘rqmadi. **Shu asnoda yurtimizda kambag‘allik muammosi mavjud ekani, u uzoq yillar davomida shakllanib, o‘ta ayanchli holatga aylanib borayotgani baralla aytildi.** Mamlakat taraqqiyotining kelajakdagi strategik rejalarini ishlab chiqishda mazkur holat alohida e’tiborga olina boshladi;

— uzoq yillar davomida shakllangan, milliy taraqqiyotimizga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatib kelayotgan korrupsiya holatiga chek qo‘yish boshlandi. **Korrupsiyani tag-tomiri bilan yo‘qotishning eng ta’sirchan va samarali mexanizmi, chuqur o‘ylangan ta’sirchan tizimi yaratildi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi;**

— mamlakat rahbarining sa’y-harakati bilan **majburiy mehnatga barham berildi**, o‘ta qattiq va mutlaqo **mantiqsiz, xalqning asosli noroziligiga sabab bo‘layotgan pasport tizimi va tekshiruv punktlari bekor qilindi;**

— ayrim rahbarlarning subyektiv talablari asosida sun’iy ravishda qo‘yilgan va qo‘shni davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarning keskinlashuviga salbiy ta’sir ko‘rsatgan barcha to‘siqlar olib tashlandi;

— amalda yopiq bo‘lgan O‘zbekiston o‘z tashqi siyosatida ochiqlik, vazminlik, pragmatik munosabatlarga ustuvor ahamiyat qarata boshladi. **Biz dunyoga ochildik, dunyo bizga ochildi.**

Bunday ijobiy holatlarni davlat siyosatining barcha sohasi, ijtimoiy-iqtisodiy hayotning hamma jabhasida ko‘rish mumkin. **Bu o‘zgarishlar xalqimiz tafakkur tarzini o‘zgartira boshladi, yangi O‘zbekistonni barpo etishga qodir avlod shakllana boshladi.**

Endi masalaning ikkinchi jihatiga e’tibor qarataylik. **Xo‘sh, odamlarimizning ana shu o‘zgarishlar, tub islohotlarga munosabati qanday?** Bugungi o‘zbekistonlik fuqarolar mamlakatimiz va jamiyatdagi o‘zgarishlar, islohotlar mazmun-mohiyatini to‘g‘ri anglab yetmoqda. Davlat rahbari, hukumat tomonidan

qabul qilinayotgan har bir farmon, qaror, farmoyishni o‘z hayotidagi o‘zgarishlar, turmush darajasini yaxshilash, mamlakat barqarorligini ta’minlash yo‘lidagi dadil qadamlar sifatida qabul qilmoqda. **Ayni paytda fuqarolarimiz bunday o‘zgarishlar, islohotlarning faol ishtirokchisi ekanidan faxr va iftixor tuymoqda.**

Bugun hukumat bergan va’dasining ustidan chiqmoqda. Buni uzundan-uzoq jumlalar tuzib, isbotlashning zarurati yo‘q. Real hayotning o‘zi buni isbotlab turibdi.

Ammo meni bir masala doimo qiynab keladi. Nega ayrim odamlar jamiyat va mamlakatimizdagi olamshumul, kechagina hatto tasavvur ham qilib bo‘lmaydigan ijobiy o‘zgarishlarni aql bilan tahlil qilmaydi, qalb bilan sezmaydi? Nima uchun ba’zilar islohotlar natijasini ko‘ra-bila turib noroziliklarini sezdirib turadi?

Ana shu savollarga javob qidirdim va topganday bo‘ldim. Yaqinda Yaratganning inoyati va mamlakat rahbari tomonidan qilingan shart-sharoitlarga binoan 15 mingdan ortiq yurtdoshimiz bilan bir qatorda muqaddas haj safarida bo‘lib keldim. Birorta davlat fuqarolariga o‘zbekistonlik hojilar uchun yaratilgan imkoniyatlarchalik shart-sharoit hozirlamaganini o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim. Safardagilarning barchasi shunday sharoitlardan mamnun bo‘lgan holda Allohga shukrona aytdi, mamlakat rahbarini tinmay duo qildi.

Muqaddas tuproqda turib xayolimga bir fikr keldi. Bu — mening, bizning, barchamizning yashash, mehnat qilish, o‘qish-o‘rganish, ijod bilan shug‘ullanishimiz yo‘lida yaratilgan qulay sharoitlar uchun davlat, jamiyat, mamlakat rahbariyati oldidagi **ijtimoiy qarzdorlik** hissi bilan bog‘liq masala.

Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar, turli qomuslar, lug‘atlardan “ijtimoiy qarzdorlik” atamasini qidirdim. Ammo topmadim. Xo‘sh, ushbu atama nimani anglatadi, uning jamiyat, mamlakat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi odamlarda qanday tafakkur o‘zgarishiga sabab bo‘lishi mumkin?

Darhaqiqat, mamlakat rivojlanib, jamiyat tobora birlashib, aholi turmush darajasi, yashash sharoiti yaxshilanib borar ekan, bu o‘zgarish kishilar tafakkur tarzida ham o‘ziga xos shaklda aksini topishi kerak. **Shu ma’noda, ijtimoiy qarzdorlik jamiyat a’zolarining mamlakat rahbariyati, davlat rahbari yuritayotgan odilona va oqilona siyosat tufayli erishilayotgan yutuqlar, egallanayotgan yangi marralar uchun minnatdorlik his-tuyg‘usidir**.

Yangi jamiyatni barpo etish, qisqa muddatda odamlar turmush sharoitini tubdan yaxshilash, kelajakka ishonchini oshirish va muntazam mustahkamlab borishdan ham og‘ir ish yo‘q. Bugun yangi O‘zbekistonni qurish barobarida davlat yuritayotgan siyosat, amaliy faoliyatdan qoniqish hosil qilayotganlar xalqimizning aksariyat qismini tashkil etadi. Bu biz uchun eng muhim masala.

Ammo gap faqat islohotu yutuqlardan qoniqish hosil qilishgagina bog‘liq emas. **Hamma gap kishilardagi ijtimoiy qarzdorlik hissining davlat va jamiyat rivojlanishining yangi bosqichiga ko‘tarilishiga qay darajada xizmat qilishi holati bilan uyg‘unligini ta’minlashdadir**.

Ijtimoiy qarzdorlik tuyg‘usi ayrim odamlarning muntazam nimalardandir norozi kayfiyatda yurishi, har bir ishdan xato topish, illatni fazilatdan, fazilatni esa illatdan ajratolmaslikdan iborat tajribasizligining oldini oladi. **Ijtimoiy qarzdorlik** tuyg‘usi ba’zi kishilarning tabiat injiqligi, hamkasbining tajribasizligi, sherigining bilimsizligi, qo‘shnisining dangasaligi sabablarini davlat yuritayotgan siyosatdan, mahalliy organlar faoliyati tufayli sodir bo‘layotgan hodisalar sifatida talqin etilishidan iborat noxolis munosabatni yo‘q qiladi. **Ijtimoiy qarzdorlik** o‘zimizning noshudligimiz tufayli sodir bo‘ladigan muvaffaqiyatsizliklar, ruhiy chekinishlar, bilimsizligimiz va tajribasizligimiz tufayli jamiyatda sodir bo‘layotgan voqea va hodisalarni ijtimoiy ekspertizadan o‘tkaza olmaslikdan iborat sof subyektiv sabablarni bartaraf etadi.

Ijtimoiy qarzdorlik aholining davlat va mahalliy organlar bilan yaqinligini yanada mustahkamlaydi, ular o‘rtasida o‘zaro ishonch tuyg‘ularini yuzaga keltiradi. Davlat va aholi o‘rtasidagi aloqalarning mustahkamligi har qanday mamlakatda barqaror ijtimoiy-ma’naviy muhitni shakllantiradi, xalqimizning asriy orzu-intilishlariga mos, milliy manfaatlariga to‘la javob beradigan jamiyatni barpo etishning kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy qarzdorlik fenomeni inson ruhiyatidagi ikki muhim qadriyat — shukr va sabr asosida real kuchga aylanadi. Xalqimiz azaldan ushbu qadriyatlarni qadrlab, ularga so‘zsiz amal qilib kelgan. Har ikki qadriyat xalqimizga quvonchli va tashvishli kunlarida ma’naviy madad, kuch bergan, turli balo-qazolarning oldini olishda ruhlantirib turgan.

Shu o‘rinda Husayn voiz Koshifiyning quyidagi so‘zlariga quloq tutishni lozim topdik: shukrning ma’nosi ne’mat beruvchining bergan ne’matini yaxshilik bilan yodga olib, unga minnatdorlik izhor qilishdir. Chunki rahbarlik barcha ne’matdan ulug‘roqdir. Demak, rahbar bu ne’matning shukri bilan mashg‘ul bo‘lishi, shukrni ko‘ngil bilan, til bilan hamda boshdan-oyoq barcha a’zosi bilan aytishi kerak. Ko‘ngil shukri shundayki, ne’mat beruvchini chin dildan tanish, o‘ziga berilgan har bir ne’matni rizq yetkazuvchining g‘oyatsiz fayzi va nihoyatsiz lutfidan deb bilishdir.

> Ijtimoiy qarzdorlik tuyg‘usi insonda o‘z nafsini “o‘ldirish” orqaligina yuzaga kelishi mumkin. Bunday tuyg‘uning yo‘qligi o‘sha kishida davlatga qilgan “mehnati”ni minnat qilish asnosida namoyon bo‘ladi.

Sabr esa turli tomondan kelgan balolarga toqat qilish va o‘zini qo‘lga olishdir. Alloma ta’kidlashicha, har kim zamona hodisalarining o‘q yomg‘iri ostida sabr qalqonini yuziga tutsa, albatta, umidining o‘qi murod nishonasiga tegadi va balolardan unga hech qanday zarar yetmaydi. Chunki sabr shodlik kalitidir va rohat adabining eshigi bu kalitsiz aslo ochilmas.

Yuqoridagi iqtibosdan xulosa qilish mumkinki, shukr va sabr har qanday insonda ijtimoiy qarzdorlik holatini yuzaga keltiradi. Pirovard natijada shaxsni ko‘ngil shukri holatiga olib boradi, sabr esa har birimizga shodlik kalitini tuhfa qiladi.

Ana shu ne’matlar bir tomondan Allohning inoyati ila, boshqa tarafdan davlat rahbari, mamlakat hukumatining xalq manfaatlari yo‘lida yuritayotgan siyosati tufayli qo‘lga kiritiladi. Alloh bizni hadsiz-hisobsiz, cheksiz-chegarasiz ne’matlari bilan qamrab turadi. Nafas olishimiz ham, ko‘zimiz ko‘rishi, tilimiz qimirlab, og‘zimizdan tovush chiqishi ham Allohning ne’matidir. Shu ne’matni ishga solib gapiryapmiz, lekin bu ovoz qayerdan, qanday qilib chiqadi, o‘zimiz bilmaymiz. Bu — Alloh taoloning qudrati, biz — bandalariga marhamati, inoyatidir. Shuning uchun biz bu ne’matlarni faqat Alloh taolo berishini tushunib yetishimiz, o‘sha ne’matni zoye qilmasligimiz, shukrini ado etmog‘imiz matlubdir.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning qayd etishicha, ne’matning shukrini ado etish ikki qism bo‘ladi: **birinchisi — ma’naviy, ikkinchisi — amaliy shukr. Ma’naviy shukr — ne’mat bergan Zotga bergan ne’mati uchun hamdu sano, maqtov aytishdir. “Alloh menga jon, tan, qo‘l, ko‘z va boshqa sanab, sanog‘iga yetib bo‘lmaydigan ne’matlarni berdi, shularning shukrini ado qilishim lozim”, degan tushunchada bo‘lish va bunga amal qilish ma’naviy shukrdir.** Amaliy shukr — berilgan ne’matni ushbu ne’matni bergan Zot qanday iroda qilgan bo‘lsa, shunday tasarruf qilishdir.

Demak, Alloh niyatimiz, fe’l-atvorimiz, maqsad-muddaolarimizga ko‘ra, turli ne’matlar in’om etdi. Endi mamlakatlar va jamiyatlar oldida o‘sha ne’matlardan qanday foydalanish, ularning hajmini tobora orttirib borish, to‘plangan bu boyliklarni jamiyat a’zolari o‘rtasida adolat me’yorlariga mos ravishda taqsimlash masalasi turibdi.

Bugungi dunyo mamlakatlari oldida Alloh tomonidan berilgan o‘sha ne’matlarni qanday taqsimlash masalasida jiddiy farqlar borligini ham unutmaslik kerak. Bir to‘da amalparast, molparastlar hukmronlik qilgan davlatlarda Yaratganning ne’matlarini taqsimlashda turli adolatsizliklar, xalq manfaatini nazar-pisand qilmaslik holatlari uchraydi. Shubhasiz, bunday jamiyatda ijtimoiy qarzdorlik to‘g‘risida gapirishning o‘zi ortiqcha.

Adolatli, o‘z xalqi manfaati yo‘lida xizmat qilishni faoliyatining bosh mezoniga aylantirgan har qanday davlatda bu ne’matlar insof me’yorlari asosida taqsimlanadi. Bu ne’matlardan foydalanish uchun barchaga barobar sharoit va imkoniyat yaratiladi. Bugun yangi O‘zbekistonda ana shunday muhit yaratilgan. O‘z faoliyati bilan shaxsiy va umumdavlat manfaatlarini uyg‘unlashtirgan har bir vatandoshimiz mazkur ne’matlarga egalik qilish imkoniyatini qo‘lga kiritmoqda.

Shayx hazratlari ta’kidlaganidek, ma’naviy shukr — Yaratganga ne’mati uchun maqtov, hamdu sano aytishdir. **Ijtimoiy qarzdorlik esa Alloh tomonidan yaratilgan ne’matlarni kishilar o‘rtasida adolat tamoyillariga mos taqsimlab berish, ushbu ne’matlardan foydalanish uchun barchaga teng imkoniyat eshigini ochib bergan hukumatga, davlat boshliqlariga bildiriladigan fikr, munosabatlardir.**

Insonda ijtimoiy qarzdorlik tuyg‘usini shakllantirish o‘ta qiyin masala. Buning qator obyektiv va subyektiv sabablari bor. Obyektiv sabablar u yoki bu shaxs yashab turgan davlat va jamiyatda o‘rnatilgan muayyan tuzum, qabul qilingan qonunlar, ularning amal qilish holati bilan bog‘liq. Subyektiv sabablar esa insonning jamiyatdagi o‘rni, davlat yuritayotgan siyosatga munosabatiga bog‘liq.

Shu ma’noda, qayerda davlat hamda jamiyat taraqqiyoti yo‘lida xalq va siyosiy hokimiyat orzu-intilishlarida uzviylik, uyg‘unlik bo‘lsa, shubhasiz, o‘sha joyda fuqarolarning ijtimoiy qarzdorlik tuyg‘usi baland bo‘ladi. Shu o‘rinda mamlakatimiz rahbarining quyidagi fikrlariga e’tibor berish zarur, deb o‘ylaymiz: **“Yangi O‘zbekiston — barchamizning ezgu orzumiz, mehnatkash, tinchliksevar xalqimizning orzusi!**

Unda xalqimizning azaliy umid-niyatlari, yuksalish sari intilishlari o‘ziga xos tarzda aks etmoqda.

Yangi O‘zbekiston orzusi ham, jahondagi milliy taraqqiyot g‘oyalarini o‘zida jamlagan boshqa favqulodda hodisalar kabi asrlar davomida shakllanib va sayqallanib kelmoqda.

Bu orzuda mujassam bo‘lgan xalqimizning istagi, xohish-irodasi insonparvar va taraqqiyparvar g‘oyalarda o‘z ifodasini topganiga qadim tariximiz guvoh. Davrlar nafasi va xalqning ehtiyoj hamda manfaatlari, intilish va orzu-havaslariga monand ravishda u, goh ezgulik va adolat, goh qudratli davlat va adolatli shoh, goh komil inson va ma’rifatli jamiyat bilan bog‘liq olijanob g‘oyalarda namoyon bo‘lgani ma’lum”.

Odamlarimizda ijtimoiy qarzdorlik tuyg‘usini shakllantirish uchun nimalarga e’tibor berish lozim? Nazarimizda, **birinchidan,** mamlakat va jamiyatdagi islohotlar, tub o‘zgarishlarning asl mohiyatini bilmasak, yangilanishlar tufayli qo‘lga kiritilayotgan yutuqlarimiz mazmun-mohiyatini anglamasak, bularni tahlil qila olmasak, boshqalardan ana shu tuyg‘uning shakllanishini kutish o‘rinsiz harakat, deb o‘ylaymiz.

Ikkinchidan, jamiyat a’zolarida ijtimoiy qarzdorlik hissini shakllantirish uchun axloq va qanoat uyg‘unligiga erishish lozim. Sharq mutafakkirlari ta’limotiga ko‘ra, faqirning afzalligi qanoatni targ‘ib qilishga olib keladi. Allomalarimiz xulosasiga ko‘ra, insondagi qanoat axloqiy tushunchadir. Shunga asosan qanoat shaxsning oliy fazilati.

Insondagi ijtimoiy qarzdorlik hissi har doim jamiyatdagi ijtimoiy adolatsizliklar, iqtisodiy va axloqiy bo‘hronlarga sabab bo‘lgan ochko‘zlik, g‘arazgo‘ylik, oltinga o‘chlik, boylikka berilish tufayli yo‘qqa chiqariladi. Shoh Iskandar butun dunyoni egallab, Xitoygacha yetib borganida Xitoy shahanshohi qabul chog‘ida Iskandarga ovqat o‘rniga bir qancha oltin va javohir olib keladi. Iskandar hayron bo‘lib so‘raydi: “Odam oltin yermidi?” U javob beribdi: “Agar ovqatga qanoat qilganingda uni o‘z mamlakatingda ham topar eding. Bu yurishlaring, bosqinlaring va qotilliklaring nima uchun kerak edi? Shoh xazinasini oltinga to‘ldirish istaging tufayli jangu jadallarda ozmuncha odam qirilib ketdimi?”

Uchinchidan, odamlarda ijtimoiy qarzdorlik kayfiyatini shakllantirish uchun nafs balosini “o‘ldirish” lozim. Nafs balosi insonni axloq, ma’naviyatdan ayiradi. Kim nafsga oshiq bo‘lsa, albatta, kibr, hasad, xorlik va tubanlik unga oshiq bo‘ladi.

Bu dunyoning zebu ziynatiga berilib yashash xalq ichida “Yegani oldida, yemagani ketida” yoki “Bu dunyoning jannati”, deb ham ta’riflanadi. Ortiqcha zebu ziynatga berilib yashash odamni buzishini hamma yaxshi biladi. Bunday hayotga o‘rganib qolganlarning rohati ko‘paygani sari tashvishi ham ortib boraveradi. Rohatning yangi turiga qo‘shilib tashvishning ham yangi xili keladi. Odam bolasi bu kabi rohat ketidan tashvish keltiradigan narsalarni o‘z ixtiyori, urinishi, horib-charchashi bilan topadi, ammo ularni ixtiyoridan tashqari, majbur bo‘lib yo‘qotadi. O‘sha zeb-u ziynatlarning yo‘qolishi egasi uchun og‘ir musibat bo‘ladi. Yo‘qolgani bir musibat, ixtiyoridan tashqari bo‘lgani yana bir musibat.

Ijtimoiy qarzdorlik tuyg‘usi insonda o‘z nafsini “o‘ldirish” orqaligina yuzaga kelishi mumkin. Bunday tuyg‘uning yo‘qligi o‘sha kishida davlatga qilgan “mehnati”ni minnat qilish asnosida namoyon bo‘ladi. Shu ma’noda, ijtimoiy qarzdorlik va minnat masalalarini mutlaqo bir-biriga mos kelmaydigan tushunchalar sifatida qabul qilish mumkin.

To‘rtinchidan, har birimizdagi ijtimoiy qarzdorlik tuyg‘usi mamlakat va jamiyatda erishilgan yutuqlar, dinamik o‘zgarishlarni faqat e’tirof etish bilangina o‘lchanmaydi. Bunday tuyg‘u shaxsning ijtimoiy inertliligini, muayyan ma’noda jamiyatga nisbatan beparvoligi, loqaydligini inkor etadi. Haqiqiy ma’nodagi ijtimoiy qarzdorlik tuyg‘usi insonning jamiyatda ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlar, islohotlar jarayonidagi faol ishtiroki, milliy taraqqiyot yo‘lida o‘zini safarbar etishi asnosida shakllanishi mumkin.

Beshinchidan, ijtimoiy qarzdorlik hissi fuqarolar tomonidan o‘zaro ijtimoiy aloqalar o‘rnatilgan jamiyatda sodir bo‘ladi. Ijtimoiy aloqalar faol kishilar, jamiyat bilan tezlikda o‘zaro muloqotga kirisha oladigan, siyosiy-mafkuraviy jihatdan mustahkam iroda va e’tiqodga ega bo‘lganlar faoliyati natijasida shakllanadi. Ijtimoiy aloqalar jamiyat a’zolarida pozitiv tafakkurni shakllantirish kuchiga ega.

Bunday aloqalar e’tiqodi sust, ijtimoiylashuv ko‘nikmasi past, axborotlashgan jamiyat talablariga javob bera olmaydiganlarning tafakkur o‘zgarishlariga sabab bo‘ladi. Pirovard natijada ijtimoiy aloqalar odamlarda ijtimoiy faollikni yuzaga keltiradi, turli stress holatlarni bartaraf etadi va shunga monand ularda sog‘lom ijtimoiy qarzdorlik tuyg‘usini shakllantiradi.

Odamlarda ijtimoiy qarzdorlik tuyg‘usi qanchalik shakllangan bo‘lsa, bu holat mamlakatda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini shunchalik ta’minlaydi. Ayrimlardagi noxolis norozilik, hayotdan bezish, betahlil, xato xulosalar chiqarishning oldini oladi. Jamiyat a’zolarida shukrona, kelajakka umid, hayotga, yaxshi yashashga qiziqish va intilishni kuchaytiradi. Shu ma’noda, ijtimoiy qarzdorlik tuyg‘usiga davlat va jamiyat taraqqiyotini ma’naviy-axloqiy jihatdan ta’minlab beradigan muhim fenomen hodisa sifatida qarash mumkin.

O‘zbekistonda 2030-yilgacha «yashil» energetika manbalari (quyosh, shamol, gidroenergetika) quvvatini 27 gigavattga yetkazish uchun faol investitsiya siyosatini izchil davom ettirish belgilangan. Bunda quyosh va shamol elektr stansiyalari quvvati 21, GESlarniki esa 6 gigavattga yetkazilishi prognoz qilingan. Ularga qo‘shimcha ravishda gibrid (quyosh plyus shamol) elektr stansiyalar ham barpo etiladi.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 25-iyul, 148-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Islohotlar samarasi

TO‘RTTA TUMAN TAJRIBASI

yangi brendga aylanadi

Yurtimizning har bir go‘shasida hududiy imkoniyatdan kelib chiqib, rivojlanish dasturlari amalga oshirilayotir. Tuprog‘i unumdor maskanlarda bog‘dorchilik keng quloch yoygani, poliz ekinlari ekilib, millionlab so‘m daromad olinayotgani quloqqa chalinsa, ishlab chiqarish yuksalayotgan joylarda esa asosiy e’tibor tadbirkorlikka qaratilayotganiga shohid bo‘lish mumkin.

Jaloliddin USMONOV,
Xalqaro press-klub raisi

Hududlarda amaliyotga joriy etilayotgan loyihalar asosida bandlikni ta’minlash, dehqonchilik, chorvachilik va sanoatni rivojlantirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishlarida samarali natijalarga erishilmoqda. Natijada aholi farovonligi oshmoqda, odamlar kelajakda emas, aksincha, bugun baxtli hayot kechirishni boshlayotgani quvonarli holdir.

Bu jarayonda har bir hududning infratuzilma va resurslari, mehnat kuchi, aholining qobiliyati, tadbirkorlik sharoitini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etardi. Uzoq va maqsadli reja hamda ilmiy yondashuv asosida hududlarning o‘ziga xosligi o‘rganildi va mos ravishda turli yo‘nalishlarda tajriba-sinovlar o‘tkazila boshlandi. Samarali natijalarga erishildi ham. Ammo oldinda qilinadigan ishlar talaygina, buni inkor etib bo‘lmaydi, albatta. Davlatimiz rahbari raisligida joriy yil 17-iyul kuni hududlar va tarmoqlarda iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlash bo‘yicha birinchi yarim yillik tahlili hamda yil yakuniga qadar ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ham bu haqida aytib o‘tildi.

Birgina joriy yilning o‘tgan davrida kapital qo‘yilmalar 229 trillion so‘mni tashkil qilgan. Shundan 15,5 milliard dollari xorijiy investitsiyadir. Andijon, Buloqboshi, Qorako‘l, Karmana, Davlatobod tumanlari, Namangan va Samarqand shaharlari investitsiyasi 100 million dollardan, Sharof Rashidov, Forish, Yangi Namangan, Ohangaron tumanlarida esa 70 million dollardan oshgani tahsinga loyiq.

Bundan tashqari, Sayxunobod, Uychi, Zarbdor va G‘ijduvon tajribalari bo‘yicha olti oyda 4 mingdan ortiq mahalla sanoat va qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashuvi jarayonida 1 million 600 ming aholi rasmiy ravishda ish bilan band etilgani, 712 mingta yangi daromad solig‘i to‘lovchi paydo bo‘lganini mamnunlik bilan qayd etish mumkin.

Xo‘sh, Sayxunobod tajribasi qanday afzalliklarga ega, degan savol tug‘iladi. Sayxunobod cho‘l zonasida joylashgani uchun asosiy logistika yo‘llaridan chetda qolgan. Shu bois, aholining turmush darajasi tushib borayotgani rasmiy statistik raqamlarda aks etayotgandi. Shuning uchun Prezidentimiz tomonidan Sirdaryoda iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari bo‘yicha hozirgi sharoiti o‘rtachadan past, lekin ichki imkoniyatlari katta bo‘lgan bir hudud tanlab olinib, u yerda namunaviy tajriba sifatida mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha muayyan ma’noda eksperiment — tajriba taklif qilingan edi. Bu o‘tgan davrda o‘zini oqladi.

Qisqa vaqt ichida Sayxunoboddagi o‘sish formulasining ovozasi butun mamlakat bo‘ylab yoyildi. Bu tajriba tumandagi 19 mahalla, 794 ta ko‘chaga, umuman, tomorqa egalariga haqiqiy mahorat sabog‘i bo‘ldi, deyish mumkin. Shu joyda yana bir narsani eslatish joiz: hattoki yetishtirilgan mahsulotning xaridori tayin. Bunday holatni tasavvur qilishning o‘zi zavq beradi kishiga. Safar chog‘ida uyma-uy yurarkanmiz, kimdir ekinga qaragan, kimdir uyini oqlaganini kuzatdik. Harakatda baraka borligi shundoq sezildi. Tumanga qayta yangi nafas kirgandek tuyuldi.

Tomorqa yer egalari bilan suhbatlashganimizda, ular agronomlar bilan uzviy ish olib borayotgani, tabiat, yer unumdorligi, sizot suv darajasini inobatga olib, qaysi ko‘chat qancha suv ichadi-yu, qancha daromad berishini aniq hisob-kitob qilib, keyin ish boshlayotganiga guvoh bo‘ldik. Misol uchun, shu vaqtgacha 10 sotixga ekilgan bedadan 3 million so‘m daromad ko‘rilgan bo‘lsa, uning o‘rniga oshqovoq ekilganda 30 million so‘mgacha foyda olish mumkinligi qayta hisob-kitob qilinganda ma’lum bo‘ldi. Aholi vakillari davlatimiz rahbarining Sayxunobodda o‘tkazgan yig‘ilishi haqiqiy “vijdon taftishi” bo‘lganini ta’kidladi. Ayniqsa, tomorqa egalaridan biri uyalganini, vijdoni qiynalayotganini aytdi.

Bundan buyog‘iga mazkur tajriba asosida tuman hokimi, bank rahbari va mahalla raisi birgalikda ishlash bo‘yicha uch tomonlama shartnoma tuzadi va bu tajriba asosida xonadonlar uchun moliyaviy paket qilib beriladi. Ushbu amaliyotning samarasi o‘laroq, 495 ming aholi bandligini ta’minlash ko‘zda tutilmoqda.

Bu tajriba iqtisodiy kompleks tashkilotlarining mahallaga tushib, aholi orasiga kirib, xonadonbay ishlash orqali odamlarning ichki ehtiyojlarini aniqlash va turmush farovonligi uchun maqsadli choralar ko‘rishga asos bo‘ldi. Qo‘shimcha ish o‘rni yaratish orqali mehnat qilish imkoniyati oshirildi.

Aytish joizki, har bir hudud alohida bir imkoniyatga ega. Xususan, “Uychi tajribasi” o‘zgacha shaklda amaliyotga joriy qilinadi. Bunda hokim yer, elektr, suv, yo‘l va boshqa infratuzilma masalasini, bank esa mablag‘ni hal qiladi. Tuman hokimi va bank rahbarlari tadbirkorlar bilan uchrashib, ularning biznesini kengaytirish uchun zarur choralarni ko‘radi. Natijada yangi ish o‘rinlari yaratilib, aholi bandligi ta’minlanadi.

Har bir hududning “o‘sish nuqtalari” bor. Bu yo‘nalishlar rivojlantirilib, odamlarga ish o‘rni va daromad manbai yaratish davlat siyosatining ustuvor maqsadlaridan biridir. “G‘ijduvon tajribasi” ham ana shunday ulkan maqsad asosida hayotga joriy qilina boshlandi. Bu tajriba asosida yil yakuniga qadar mingta mahallaning o‘zida ko‘p qavatli sanoat binolari tashkil qilinib, ularga xonadonlardagi ishlab chiqarishlar ko‘chiriladi. Muhim jihati — ushbu binolarning yuqori qavatlarida ishlaydigan tadbirkorlarga soliq imtiyozlari beriladi. Bu 140 ming ish o‘rnini “soyadan” chiqarish deganidir.

Har bir hududning iqtisodiy-ijtimoiy o‘sishi u yerdagi ishlab chiqarish kuchlari soni, sifatiga, turli yo‘nalishlar rivojiga bog‘liq. “Zarbdor tajribasi” asosida tumanlarda sanoat, savdo, xizmat va zamonaviy agrotexnologiyalar sohasida drayver loyihalar qilinadi. Ularni amalga oshirishga bu yil qo‘shimcha 500 milliard so‘m ajratiladi. Bu orqali yana 150 ming ish o‘rni yaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, ham bir qarich yerni, ham bir tomchi suvni mahsulotga aylantirishimiz shart. Bunga kasbga bo‘lgan mehrimiz, daxldorligimiz, mehnat va harakat orqali erishamiz. Boqimandalik millatimizga xos bo‘lmagan illatdir.

Sayxunobod, Uychi, Zarbdor va G‘ijduvon tajribalari mamlakatimiz uchun “yangi brend” bo‘ldi, desak mubolag‘a emas, albatta. Muvaffaqiyatli islohotlarda aniq reja, o‘z vaqtida sarflanadigan mablag‘, to‘g‘ri prognoz va ish ketma-ketligi yo‘lga qo‘yilgan bo‘ladi. Ayni vaqtdagi samarali natijadan anglash mumkinki, ushbu tumanlarda qo‘llanilgan tajribalar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda va xalqimiz farovonligiga xizmat qilyapti.

Dolzarb mavzu

“YASHIL” ENERGETIKANI ZAXIRALASH MUMKINMI?

Shuhrat ISAYEV,
Innovatsion rivojlanish agentligi bosh mutaxassisi

Quyosh va shamoldan elektr energiyasi olish eng foydali va ayni paytda zaruriy ixtirolardan biri ekaniga shubha yo‘q. Avvaliga qo‘shimcha imkoniyat sifatida qaralgan bu usul hozirgi kunga kelib, katta ehtiyojga aylandi. Tabiiy zaxiralar tugab, elektr energiyasiga talab bir necha barobar oshgan sharoitda tabiat ne’matlaridan muqobil energiya manbai sifatida foydalanishga zarurat ortmoqda.

Quyosh ham, shamol ham yaxshigina elektr energiya manbai. Qolaversa, ulardan energiya tabiiy usulda olingani bois, ekologiya uchun ham bezarar. Shu jihatiga ko‘ra, uni “yashil” energetika deb ataymiz.

O‘zbekistonda 2030-yilgacha “yashil” energetika manbalari (quyosh, shamol, gidroenergetika) quvvatini 27 gigavattga yetkazish uchun faol investitsiya siyosatini izchil davom ettirish belgilangan. Bunda quyosh va shamol elektr stansiyalari quvvati 21, GESlarniki esa 6 gigavattga yetkazilishi prognoz qilingan. Ularga qo‘shimcha ravishda gibrid (quyosh plyus shamol) elektr stansiyalar ham barpo etiladi.

Muqobil energiya manbalaridan foydalanish nisbatan arzon va tejamkor usul bo‘lishiga qaramay, ularni qurish va barpo etish o‘ziga yarasha xarajatni talab etadi. Masalan, quyosh fotoelektrik stansiyalari, shamol turbinalari katta mablag‘ evaziga qad rostlaydi. Yurtimizda shunday texnologiyalarni qurish uchun ko‘plab investitsiyalar jalb etilayotgani boisi shunda. Ammo natijasi ham shunga yarasha bo‘ladi. Muqobil energiya manbalari “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish yo‘lidagi asosiy qadamlardan bo‘lish barobarida, mamlakatning elektr energiyasiga bo‘lgan talabini qondirishga sezilarli hissa qo‘shadi.

Yana bir tomoni, O‘zbekiston quyoshli o‘lka bo‘lgani bois, muqobil energiya manbalaridan foydalanish imkoniyati juda yuqori. Deyarli yil davomida quyosh nurlaridan elektr toki olish mumkin. Buning uchun quyosh hamisha charaqlab turishi shart emas, uning miltillagan nuri ham issiqlik va elektr energiyasi bera oladi. Bulutli va yomg‘irli kunlarda esa zaxirada to‘plangan elektr energiyasidan foydalanish mumkin.

Ya’ni endi muqobil energiya manbalari orqali nafaqat elektr energiyasi ishlab chiqarish, balki ularni saqlash ham zaruratga aylandi. Bu katta texnologiyalar, energiya saqlash tizimlarini yaratishni taqozo etadi. Mazkur jarayon jahon amaliyotida allaqachon rivojlanib bormoqda. “Bloomberg NEF” tadqiqot tashkiloti bashoratiga ko‘ra, 2030-yil oxirigacha global energiya saqlash quvvati 358 gigavatt, sig‘imi esa 1028 gigavatt-soatga oshadi. Bu 2020-yilda ishga tushirilgan energiya saqlash tizimlari quvvatidan 20 barobar ko‘p, degani.

Har biri o‘ziga xos

Shu o‘rinda savol tug‘iladi, O‘zbekistonda ham energiya saqlash tizimlari (EST) ni yaratishga zarurat bormi? Buni kichik tahlil bilan izohlasak. Ma’lumotlarga ko‘ra, 2030-yilga borib, yurtimizda elektr energiyasi iste’moli 120,8 milliard kilovatt-soatga yetishi bashorat qilingan. Bunda yil davomidagi o‘rtacha iste’mol soatiga 14 gigavattga to‘g‘ri keladi. Kunlik talabda kunduzgi iste’mol 20 foiz ko‘proq, elektr tarmoqlaridagi texnik yo‘qotishlar esa 10 foizni tashkil etadi, deb olsak, kun davomidagi iste’mol 19 gigavattga yaqin bo‘ladi. Bu degani, quyoshli va shamol bo‘lib turgan kunda faqat muqobil energiya manbalari ishlab chiqaradigan elektr energiyasining o‘zi iste’mol talabidan ancha yuqori bo‘ladi. Ortiqcha energiyani saqlab qo‘yish hamda quyoshsiz va shamolsiz davrlarda shu saqlangan energiyadan foydalanish uchun esa ESTlarini yaratish zarur.

Bu masala o‘rganilib, turli tahlillar olib borilmoqda. Dastlabki xulosalar asosida yurtimizning 8 ta hududida umumiy sig‘imi 3 ming megavatt-soat bo‘lgan elektrokimyoviy ESTlarni qurish rejalashtirilgan. Bu sig‘im energetika tizimining quvvat balansini rostlashga kamlik qiladi. Ammo jarayon takomillashgani sari sig‘imlar ham oshirib boriladi, qo‘shimcha ESTlar quriladi.

Gap shundaki, odatda energiya tizimlarida ishlab chiqarishning katta ulushi issiqlik va atom elektr stansiyalari hissasiga to‘g‘ri keladi. Ularning eng katta kamchiliklaridan biri iste’mol kamaygan vaqtda elektr energiyasi ishlab chiqarishni tezda kamaytira olmaydi va bu katta yo‘qotishlarga olib keladi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari quvvatini cheklash esa mahsulotning tijoriy narxi sezilarli darajada ortishiga olib keladi. Bunday sharoitda energiya saqlash tizimlaridan foydalanish ancha tejamkor usul bo‘lib, boshqa quvvatlardan foydalanish samaradorligi hamda energiya ta’minoti ishonchliligini oshiradi. Qolaversa, zamonaviy texnologiyani qo‘llash kunlik yuklanish grafigini tekislash, quvvat oqimlarini boshqarish, ortiqcha quvvatni zaxiralash, kuchlanish va chastotani rostlashda ishtirok etish, elektr sifatini yaxshilash kabi samaradorliklarga xizmat qiladi.

Energiya saqlash tizimlarining bir qancha turlari mavjud. Ulardan biri superkondensatorlar (ionistrlar) bo‘lib, an’anaviy kondensatorlar va batareyalar o‘rtasidagi bo‘shliqni to‘ldiradi. Energiya zichligi elektrokimyoviy batareyalardan taxminan 5-10 marta kam bo‘lsa-da, quvvat zichligi 10 dan 100 baravargacha yuqori. Bu juda qisqa vaqtda quvvatlanish va quvvat berish imkonini beradi. Batareyalarga qaraganda juda ko‘p marta quvvatlanish va quvvat berish sikliga bardoshli. Ana shu xususiyatlari sabab qisqa vaqt ichida keskin yuz beradigan quvvat o‘zgarishlarini kompensatsiya qilishda foydalaniladi.

Energiyani saqlash tizimlari oddiy, arzon va amaliy bo‘lishi ham mumkin. Masalan, issiqlik energiyasini saqlash tizimidan qo‘shimcha energiya kerak bo‘lganda foydalaniladi. Issiqlik saqlovchi modda sifatida esa tosh, qum, vulqon tog‘ jinslari, ayrim metallar yoki suyuqlikni ishlatish mumkin. Issiqlik sig‘imi katta bo‘lgan bunday saqlovchi modda yaxshi izolyatsiya qilingan hajmda saqlanadi. Jarayonda ortiqcha quyosh, elektr yoki texnologik jarayonda ajralib chiqayotgan issiqlik energiyasi saqlovchi moddaga uzatiladi. Saqlangan issiqlik energiya kerak bo‘lganda binolarni yoki issiqxonalarni isitishga to‘g‘ridan to‘g‘ri yuboriladi yoki suv qizdirilib, bug‘ turbinasiga uzatilib, elektr energiyasiga aylantiriladi.

Elektrokimyoviy batareyalarda esa tashqi elektr toki manbai ta’sirida kimyoviy energiya to‘planib, keyinchalik elektr energiyasiga aylanadi. Bunda birinchi jarayon batareyani zaryadlash, ikkinchisi esa batareyani zaryadsizlantirish, deb ataladi. U elektr tokini o‘tkazish va energiya sarflash orqali butunlay qayta tiklanishi mumkin bo‘lgan elektr generatoridir.

Energiya saqlash tizimlari orasida yoqilg‘i elementlari (vodorod) ham bor. U qulay ob-havo sharoitlarida quyosh va shamol stansiyalarida elektr ishlab chiqarish quvvati maksimal bo‘lganida ortiqcha elektr energiyasi hisobiga suvni parchalab, “yashil” vodorod va kislorodga ajratadi. Toza kislorod kerakli sohalarga yo‘naltiriladi, ortiqchasi atmosferaga chiqarib yuboriladi. Jarayonda vodorod va kislorod kimyoviy reaksiyaga kirishib (yonish bo‘lmaydi), toza suv hosil bo‘ladi va elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Muhimi, atrof-muhitga hech qanday zararli moddalar chiqarilmaydi.

Gravitatsion energiya saqlash tizimlari (GEST) energiyani saqlash va chiqarish uchun jismlarning yer bilan o‘zaro tortishish kuchidan foydalaniladigan texnologiyadir. Quyosh panellari yoki shamol turbinalari kabi manbalardan ishlab chiqarilgan elektr energiyasining ortiqcha qismi og‘ir jismlarni muayyan balandlikka ko‘tarishga yo‘naltiriladi. Bunda ortiqcha elektr energiyasi jismlarning potensial energiyasiga aylanadi. Energiya kerak bo‘lganda, jism pastga tushiriladi va uning potensial energiyasi generatorlar yordamida elektr energiyasiga aylantiriladi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, Shveysariyaning “Energy Vault” kompaniyasi dunyodagi birinchi tijoriy gravitatsion energiyani saqlash akkumulyatorini ishga tushirdi. Tizim Xitoyda qurilgan bo‘lib, quvvati 25 megavatt, energiya sig‘imi 100 megavatt-soatga yetadi. Texnologiya har biri 24 tonna bo‘lgan beton bloklarni elektr energiyasi hisobiga balandlikka ko‘tarishda potensial energiya hosil qiladi va bloklarni yerga tushirganda elektr energiyasi ishlab chiqaradi.

Umuman, jahonda bu yo‘nalishdagi ishlar rivojlanish yo‘lida. Ularning yurtimiz sharoitiga moslarini o‘rganib, joriy etish ustida ilmiy izlanishlar olib boryapmiz. Xususan, Innovatsion rivojlanish agentligi mutaxassislari umumiy foydalanishdagi manbalar ma’lumotlarini tahlil qilish natijasida O‘zbekiston sharoitida energiya saqlash tizimining bir qancha turlari qatori gravitatsion energiya saqlash tizimlari (GEST), ayniqsa, qiya tekislikda temir yo‘l ustida harakatlanuvchi elektrovozli tizimdan foydalanish katta istiqbolga ega, deb hisoblaydi.

Bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar faol davom etmoqda. Soha mutaxassislari barcha imkoniyatlarni o‘rganib, shunga mos ravishda energiya saqlash tizimlarini tanlash va joriy etish harakatida.

Yuksalish

Yosh avlodni yetuk kadrlar etib tayyorlash hamda iqtidorini yuzaga chiqarishda imkoniyatlar muhim o‘rin tutadi. Mamlakatimizda bunga alohida e’tibor qaratilmoqda. Yoshlar bilan ishlashda yangicha yondashuvlar, o‘zgarishlar va islohotlar jarayoni kechmoqda. Boisi, vatanimizning ertasi, istiqboli yoshlar bilimi, ta’lim-tarbiyasi va egallayotgan kasb-hunariga bog‘liq.

SIFATLI TA’LIM TARAQQIYOTGA XIZMAT QILADI

Akbar NORMURODOV,
texnika fanlari doktori,
dotsent

Oliy ta’lim tizimini takomillashtirish bo‘yicha qator farmon va qarorlar qabul qilindi. OTMlarga qabul kvotasi sezilarli darajada oshirildi. Ta’lim sifati uchun juda muhim bo‘lgan o‘qishga qabul jarayoni takomillashtirildi va shaffoflashdi. Natijada bilimli, talabchan, iqtidorli va qobiliyatli yoshlarni o‘qishga tanlab olishning mukammal tizimi yaratildi.

Ta’lim sifatini oshirish, ilm-fanni rivojlantirish, pedagog xodimlar va olimlar faoliyati uchun shart-sharoitlar yaratish, ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha istiqbolli vazifalar belgilangan.

Keyingi yillarda yangi, shu bilan birga, qator xorijiy oliy ta’lim muassasalari ochildi. Mavjudlarida esa yangi bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha o‘quv jarayoni tashkil etildi. Talab va takliflardan kelib chiqqan holda yangi yo‘nalishlar ochilgani ham sohadagi tub burilishlardan biri bo‘ldi.

Oliygohlarning xalqaro reytinglardagi ko‘rsatkichi yildan yilga yaxshilanyapti. Natijada nufuzli xorijiy OTMlar bilan ta’lim va ilmiy sohada hamkorlik kuchaymoqda. Sog‘lom raqobat muhitini qaror toptirish uchun professor-o‘qituvchilarning ilmiy darajasi, ishlanmalari, ilmiy maqolalaridan kelib chiqib, faoliyatiga haq to‘lash tizimi shakllantirildi. Eng asosiy ko‘rsatkichlardan biri bo‘lgan o‘qituvchilar mavqei va OTMlar obro‘si oshirildi.

Shu bilan birga, yoshlar bandligini ta’minlash, bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga ham juda katta e’tibor qaratilmoqda. Bu bilan barcha sohaga malakali kadrlar tayyorlash hamda iqtidorini namoyon qilish barobarida ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga yechim bo‘ladigan yangiliklar taklif etilmoqda.

Bizning OTMdagi ta’lim yo‘nalishi asosan, axborot texnologiyalari bilan bog‘liqligi bois, talabalarimiz yangiliklar bilan hamqadam yashaydi, muntazam ixtirolar qilishga intiladi. Turli startap loyihalarni amalga oshirishga harakat qilmoqda. Natijada talabalarimiz viloyat hamda respublika miqyosida o‘tkazilgan qator muhim tanlovlarda qatnashib, ishlanmalari bilan faxrli o‘rinlarni egallab kelmoqda.

Ta’limdagi islohotlarni qo‘llab-quvvatlash uchun Raqamli texnologiyalar

vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti hamda hududiy filiallari, axborot texnologiyalari kompaniyalari, shuningdek, sohaga tegishli korxonalar bilan hamkorlikda “TUIT Bright Future Week” haftaligi bo‘lib o‘tdi. Talabalar va doktorantlarning o‘quv, ilmiy va innovatsion faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan haftalik Toshkent axborot texnologiyalari universitetida tashkil etildi. Sovrin jamg‘armasi 1,2 milliard so‘m.

Haftalik doirasida yoshlar uchun foydali tanlovlar o‘tkazildi. Unda TATU Qarshi filiali talabalari ham faol ishtirok etib, Digital Education yo‘nalishi bo‘yicha “IT Start qizlar” jamoasi 1-o‘rinni egallab, umumiy miqdori 7 million so‘mlik vaucherni qo‘lga kiritdi.

Yoshlar iqtidorining yuzaga chiqishida turli tadbirlar, tanlovlar muntazam o‘tkazilishi samara beradi. Bundan tashqari, yosh olimlarning ilmiy izlanishlari, ilm-fan taraqqiyoti uchun intilishlarini rag‘batlantirib borish sohaga yangi g‘oyalar kirib kelishiga turtki bo‘ladi.

Oliygohimizda axborot texnologiyalarini yanada rivojlantirish, bunga hamohang tarzda turli yangiliklar yaratish borasida o‘qituvchi va talabalar uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. “Yosh ixtirochilar”, “Startap loyihachilar”, “Yosh texnologlar” kabi qator to‘garaklar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Bunda sohaga qiziquvchi yoshlar nazariy bilimlarini amaliyotda muntazam qo‘llamoqda. Viloyatdagi yirik korxona va zavodlar bilan hamkorlik shartnomalari tuzilgan. Talabalar ta’limdan ajralmagan holda amaliy jarayonlarda ishtirok etib, tajriba oshirmoqda. Amaliyot o‘taladigan korxonalar sonini yanada oshirish ko‘zda tutilgan.

Xorijiy universitetlar bilan aloqalarni mustahkamlash orqali talabalarga yana bir imkoniyat taqdim etmoqchimiz. Bundan ko‘zlangan maqsad o‘zaro malaka almashish, erishilayotgan natijalarni o‘rtoqlashib borish, soha yangiliklarini birga tahlil qilishdan iborat. Bu, avvalo, shu yo‘nalishda ta’lim olayotgan yoshlarga yangicha kuch beradi. Iqtidorini yuzaga chiqarishga imkondir. Yoshlarning o‘zaro fikr almashuvi, yangi g‘oyalar ustida ishlashiga turtki bo‘ladi. Filial ma’muriyati tashabbusi bilan oliygoh hamda mahalla hamkorligi yo‘lga qo‘yilgan. Yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida mahallalarda talaba yoshlarning “Zakovat” va boshqa intellektual o‘yinlari o‘tkazib kelinmoqda.

Shiddat bilan rivojlanayotgan mamlakatimizda uyg‘oq qalbli, ilmu ma’rifatli, ma’naviyatli, yaratuvchan talabalarimiz ilmiy ishlanmalari, loyihalari, startaplari bilan yoshlarga namuna bo‘lmoqda. Birgina misol: joriy yil yanvar-iyun oylarida jamoamiz a’zolari 10 dan ortiq ilmiy ishlanma, 20 dan ortiq mualliflik guvohnomasiga ega bo‘ldi. Bularning bari islohotlardan ko‘zlangan maqsadga erishilayotgani isboti. Hali oldimizda vazifalar, rejalar ko‘p. Yoshlarni xalqaro maydonda talabgir, yetuk mutaxassis etib tayyorlash orqali yurtimiz iqtisodiy, ijtimoiy farovonligini ta’minlashga bel bog‘laganmiz.

Kecha va bugun

QAYG‘UDAN SO‘NGGI QUVONCH

“FARZANDLARIM HAM, NEVARALARIM HAM O‘QITUVCHI BO‘LADI”

Nizomiddin muallimning chorak asr o‘qituvchilik qilib hech kosasi oqarmadi. Tilab olgani bir o‘g‘il, bir qizini boshqadan kam bo‘lmasligiga ancha urindi. Bo‘lmadi, bo‘lmadi. Yo‘g‘on cho‘zilib, ingichka uzilar pallalar — birinchilardan bo‘lib o‘qituvchi degani mo‘rt ipdek uzilib ketaverdi.



Muallimning maoshini ko‘rpaga qiyos etgulik bo‘lsa, oiladagi to‘rt jonning birovi — o‘g‘ligagina yetgulik yopinchig‘i bor edi sharafli va fidoyi, bilimli kasb sohibining.

Plastik kartaga tashlab berilgan ikki xalta unga bazo‘r yetgulik maosh oylab sarson bo‘lsa hamki, naqd pul ko‘rinishiga kelmadi-kelmadi. Oynai jahonda plastik kartada savdo qilinadi, degani shunchaki bir quruq gap chiqib qoldi.

Qaysi savdo shoxobchasiga borsa, “Qayerga borsangiz boring, naqd puldan boshqasiga savdo qilmaymiz”, degan javobni olaverardi.

Ba’zan allaqaysi bank xodimi 20 foizdan naqd qilib beraman, deb tuya ham qildi. Allavaqt bank eshigida turadigan qo‘riqlash xodimi ham “Menga ishoning, eng arzon naqdlashtirishni o‘zim qilib beraman, ustoz”, deb bo‘lib-bo‘lib, uzunichakdek cho‘zib-cho‘zib naqd pul berardi.

Oyligining yo‘q joydan 20-30 foizi havoga uchib ketayotganidan xo‘rligi kelib ketardi o‘qituvchining. Dardingni kimga aytasan?!

Atrofi panjara bilan o‘rab-chirmab tashlangan tuman hokimligiga borsinmi, borganda ham hokimi mutlaqning na ismini, na o‘zini tanisa, tanidi ham deylik, dardini aytsa, qani pastga tushib eshitsa birov, lab burib qolaverardi.

Nizomiddin muallim direktor bo‘ldi. Avval mahallaga, tumanga, yurtga bilimli, mard, xalqparvar, halol, vijdonli kadrlarni yetishtirib berishni diliga tugdi.

Chuchvarani xom sanaganini kelgusidagi rejalarini qo‘ltiqlab tuman ta’lim idorasiga borganida, mudir bilan munosabatidan bildi.

— Bizning boshga saqich yopishtirmang, och qornim-tinch qulog‘im. Ta’limga xo‘ja-yin ko‘p. O‘lmasa, o‘sha bolalar kunini ko‘rib ketar, — dedi mudir.

Ko‘pchilik bu lavozimga qiziqmaganicha ham bor ekan, har ikki kunning birida shahar enasan, uzzukun yig‘ilish. Maktabga hamma xo‘jayin, maktab bedarvoza: tashkilotman deganning xodimi borki, eshigingni tepib kirib, talabini aytib, ishini bajarib chiqadi. Bir bor “Iye, bu ta’lim dargohi, bizning ham o‘zligimiz bo‘lishi kerak axir, kelajakni biz yaratamiz”, degan edi, qaysidir idoraga chaqirishdi. Ikki kun allaqaysi idora eshigining yonida sarg‘ayib turib keldi. Nizomiddin muallimning lavozimi direktorning o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosarligiga tushirildi.

O‘quv yilining birinchi choragi — uch oylik ta’lim vaqti paxta dalasida o‘tdi. O‘qituvchilar va yuqori sinf o‘quvchilari paxtazorga haydaldi. O‘qituvchi va o‘quvchi belidagi belbog‘iga non tugib, paxtazor oraladi. Suvsadi, birov to‘yib toza suv icholmadi. Mador bo‘lgulik yegulik — taom bo‘lmadi. Kechqurunlari hisob bo‘ldi. Maktab yana rejani bajarolmadi.

Fermer yana o‘shqirdi:

— Hokim boboga o‘zing javob berasan!

— Rais bobo, o‘quvchilarni qarang — dala shiyponida kuzning sovig‘ida dirdirab yotibdi. Ularning kelajagi nima bo‘ladi, sog‘lig‘ini o‘ylaydigan birov bormi, — degandi boshi baloga qoldi.

O‘qituvchi va o‘quvchining yonini olgandi. Siyosatga qarshi deyilib, ishdan olindi. Nizomiddin muallim oxiri muallim bo‘ldi.

Tarixdan dars berdi. Azaldan bu el bir bo‘lib, yagona xalq sifatida ulug‘ saltanatlar barpo etgani, birlashib vatanning yorug‘ va qorong‘i kunlarida sobitqadamlik bilan kun ko‘rilgani, jadidlar yurtni ma’rifatli qilishga intilgani, ikki bor Renessansni boshidan kechirgan bu ota yurt yana qachonlardir bir Renessanslarni yuzaga keltirishga qodirligini aytib o‘tmishdan saboqlar o‘qidi.

Ammo aytar gapiga o‘zidan bo‘lak birov quloq tutmadi. Chunki u gaplarning mavridi emasdi o‘sha mahallar.

To‘g‘ri, kattagina bilim va ruhiyatni shar singari qo‘ltiqlab chiqqan o‘quvchilarning shari tez yorilgich edi. Ular uchirma bo‘lib, viloyatda yagona Termiz davlat universitetiga yoki poytaxt va shaharlarga enib ketishar, o‘qishga kirishdagi “shpargalka”, “tanka”, “bunker”, “variant” degan matohlar esa ilmni ayovsiz chopib tashlardi.

O‘nlab o‘quvchilar qanday ketgan bo‘lsa, shunday qishloqqa qaytishar, hayot adolatsizlikdan iborat, degan tushuncha ortidan yangidan yangi oilalar bunyod etilardi.

Ko‘pchiligi esa to‘rvaxaltasini yelkasiga osib, xorijga ketib, mavsumiy ishchiga aylanardi. Yurtda qolib tadbirkorlik qilaman, deganga ham imkon yo‘q edi o‘sha mahallar.

Nizomiddin muallim dunyoning, adolatning, haqiqatning chetini izlardi, topolmasdi. Ustoz degani Shiroqu Temurmalik zamonlaridan avval ham, bugun ham, kelgusida ham davralarning poyida emas, to‘ridan joy olishi kerakligini bilardi.

Davralarning birida:

— Nizomiddin muallim, tilab olgan ikki farzandingizni ham o‘qituvchilikka o‘qitayotgan ekansiz, tuzukroq kasb sizga quriganmidi pul topadigan? Ana qarang, falonchining o‘g‘li, deyarli ishlamay pul topadi, har hafta sumka-sumka bozorlik kiradi xonadoniga. Ikkinchidan, qizingizni o‘qituvchilikka qo‘yibsiz, hali bu qishloqdan qizlardan hech bir o‘qituvchi chiqmagandi. Uyat emasmi, uyat, — dedi allakim.

— O‘qituvchining maoshi bir qop unga yetmaydi, — dedi yana birov.

Nizomiddin muallim shunda achindi.

Farzandlarini ming yillardan buyon sharafli kasb sanalgan o‘qituvchilikka yo‘naltirgani uchun emas, shunday sayoz tafakkurli, paxta dalalaridan beri kelmayotgan, darsliklar yetishmayotganidan tuzukroq bilim olmagan, raqamli texnologiya — kompyuter haqida tasavvuri yo‘q, xorijiy tillarni bilmaydigan, xorijga mardikor bo‘lib ishlashga g‘ururi yo‘l qo‘yadigan kichik bo‘lsa-da bir avlod yetishib chiqayotganidan achindi.

Nizomiddin muallimning g‘ujuri o‘ynadi:

— Tilab olgan ikki bolam bor. Har birining bir etakdan bolasi bo‘lsa, ularning ham har biri o‘qituvchi bo‘ladi.

Tundan so‘ng tong otishi muqarrar bo‘lganidek, qayg‘udan so‘ng quvonch kelishi ham aniq.

* * *

Shavkat Mirziyoyev Prezidentlik vakolatiga kirishar ekan, avvalo, kelajak bunyodkori sanaluvchi o‘qituvchining sha’ni, obro‘-e’tibori, hayoti, orzu-xayollari, salomatligiga e’tibor qaratish lozimligiga hammani undadi.

Qator huquqiy asoslar yaratildi.

Davlat rahbari o‘qituvchi — xalq, millatning yorqin kelajagini yaratuvchi, tarbiyalab kamolga yetkazuvchi ulug‘ yo‘l ekanini ko‘rsatdi.

Eng avvalo, majburiy mehnatga butunlay barham berildi. Endi hech kim o‘qituvchini dalaga yoki ko‘cha supurishga majburlay olmaydigan bo‘ldi.

Uning asosiy ishi ilmini, tajribasini, kasbiy mahoratini oshirib, bolalarga yetarli darajada bilim berishdan iborat bo‘ldi.

Bundan uzoq bo‘lmagan yillarda o‘qituvchining oyligi kam, natijada pedagoglarning maqomi ham tushib ketgandi.

Bu maoshga oila boqib bo‘lmasligi ortidan

erkaklar boshqa kasblarga qo‘l urishar, ta’lim dargohi asosan, ayol o‘qituvchilarga qolgandi. Bu esa ta’lim va tarbiyada katta kamchiliklarni yuzaga keltirgandi.

2017-yildan keyin o‘qituvchilarning oyligi navbatdan tashqari 2018 va 2019-yillarda ikki bosqichda 1,5 barobar oshirildi. Birgina misol: bugungi kunda 2-toifali (ular son jihatidan ko‘pchilik) o‘qituvchilarning o‘rtacha oyligi 3 million 700 ming so‘mni tashkil etadi.

Endi o‘qituvchi plastik kartasini ko‘tarib, banklar eshigi oldida sarg‘ayib naqdlashtirib berishlarini so‘rab o‘tirmaydigan bo‘ldi. Ko‘cha-ko‘y, savdo nuqtasi, bozor — barcha joyda bankomatlar o‘rnatilgan. Bo‘lar ekan-ku! O‘z ustida ishlagan o‘qituvchi esa alohida rag‘bat topayotgani-da bor gap.

Uzun tumanining olis Bobotog‘ etaklarida, qo‘shni davlatga chegaradosh mahallaga Farg‘ona vodiysidan kelib ingliz tilidan saboq berayotgan o‘qituvchi ayol 20 million so‘m atrofida daromad topayotganini eshitib, Nizomiddin muallimning yuragida beixtiyor yorug‘lik yanada alangalandi.

Eng muhimi, Prezidentning mustahkam irodasi ortidan mamlakatda har bir soha va yo‘nalishda samarali islohotlarning borishi, ong va tafakkurda jo‘shqin evrilishlarga yo‘l ochuvchi — yangi tahrirdagi Konstitutsiya qabul qilindi. Bosh qonunimizda esa bundan buyon yurtda o‘qituvchining mehnatiga jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma’naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida qaraladi. Davlat o‘qituvchilarning sha’ni va qadr-qimmatini himoyalash, ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi, deyildi.

* * *

Bugungi kunda Denov tumani markazidan 45 chaqirim olisda joylashgan tog‘li O‘shor qishlog‘ida umrguzaronlik qilib, bu yil 70 yoshni qarshilayotgan O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi a’lochisi Nizomiddin Almosovning bir etak bolalari, nabiralari o‘qituvchilik kasbini tanladi.

Davralarning to‘rida o‘tirib olgan otaxon o‘qituvchilik kasbi sharafini, toki qayerda bu kasb qadrlanar ekan, o‘sha yurtda buyuk yangilanishlar, rivojlanishlar bo‘y ko‘rsatayotgani ifodasi ekanini zavq-shavq bilan ta’kidlashdan charchamaydi.

Biz endi bu tafakkuri teran faxriy o‘qituvchi, ilg‘or farzandlari, nabiralari, shogirdlari ortidan butun boshli mahalla yoshlari ham faqatgina o‘qituvchi va murabbiylik kasbini tanlab qolsa, hech ajablanmaymiz!

Sarvar TO‘RAYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Qo‘qon — Farg‘ona katta magistralining shundoq yoqasida Katta kenagas qishlog‘i bor. Qishloq bekatida tin olib, anhor bo‘yida majnuntollar ostidagi so‘lim choyxonalarda hordiq chiqarsangiz, u yerdagi oqsoqollar bilan suhbatdosh bo‘lsangiz, sayohatingiz yana ikki-uch kunga cho‘zilishi aniq. Chunki ularning hazil va kulgiga to‘la oromijon suhbatlarini tashlab hech qayerga ketgingiz kelmaydi…

YANGI O‘ZBEKISTON
www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Vodiylarni yayov kezganda

Farg‘ona qadimdan sayyohlar e’tiborini jalb qiluvchi sir-u sinoatga boy. Sayyohlar oqimini ko‘paytirish uchun hududda zamonaviy targ‘ibot usullaridan ham keng foydalanilyapti. Bu borada turfa yangiliklarga qo‘l urilmoqda. Xususan, Prezidentimizning Farg‘ona viloyatiga tashrifi davomida sayyohlikka oid yangi loyihalar taqdimot qilindi. Ular hududning jozibasini yanada oshiradi. Jumladan, Farg‘ona turizm halqasini yaratishga oid konsepsiya mahalliy va xorijlik sayyohlarga zamonaviy imkoniyatlar taqdim etadi.

“ENDI QISHLOG‘IMIZGA VERTOLYOT QO‘NADI!”

Farg‘ona turizmidagi yangi qadamlar

— O‘tgan yili viloyatimizga 430 ming xorijlik sayyoh keldi, — deydi Farg‘ona viloyati turizm boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari Muzaffar Temirov. — Biroq qadim tarixga, so‘lim tabiatga ega hudud uchun bu ko‘rsatkich yetarli emas. Farg‘ona turizm halqasidan maqsad xorijiy va mahalliy sayyohlarning viloyatda qolish muddatini 3 kundan 7 kungacha uzaytirish, tashrif obyektlari sonini 2 barobar oshirishdir. Buning uchun Farg‘ona, Oltiariq, Quva, Uchko‘prik tumanlaridagi diqqatga sazovor joylar turizm yo‘nalishiga kiritiladi. Umuman, halqada 577 ta maskan bo‘ladi, 50 dan ortiq savdo-xizmat ko‘rsatish turi taqdim etiladi.

Tepaqo‘rg‘on arxeologiya yodgorligi Qo‘qonning qadimiy asosidir. Shu bois, shaharning yoshi ushbu yodgorlikni ilmiy tadqiq qilish orqali aniqlangan. Bunday qadimiy maskanlar sayyohlarni qiziqtirishi shubhasiz.

— Davlatimiz rahbari mazkur arxeologik yodgorlikni rekonstruksiya va konservatsiya qilish tashabbusini bildirdi. U kelajakda “ochiq osmon ostidagi muzey”ga aylantiriladi, — deydi Qo‘qon universiteti rektori, professor Sherzod Mustafoqulov. — Qo‘qon tarixda nafaqat yirik shahar, balki kichik davlat poytaxti bo‘lgan. U haqida ko‘plab tarixiy manbalarda yozilgan. Qo‘rg‘on xarobaga aylangach, uzoq yillar qabriston bo‘lgan. Bu yerda ko‘plab alloma, adib va mudarrislar dafn etilgan. Ushbu yodgorlik 2019-yilda moddiy madaniy meros obyektlari milliy ro‘yxatiga kiritilgan. 2022-yili arxeologik qazuv ishlari natijasida yodgorlik arkining tuzilishi aniqlangan.

Prezidentimiz ziyorat xayrli ish, millat tarixini ziyorat qilish esa yanada ulug‘ ne’mat ekanini ta’kidlagani bejiz emas. Zero, ushbu qadimiy obyekt bilan bog‘liq ko‘plab tarixiy sanalar yodga olinadi. Yodgorliklar aks etadi. Shu tariqa ochiq muzey bizni bevosita ko‘hna Ho‘qand ko‘chalariga, o‘tmishning sirli bag‘riga chorlaydi. Bu yosh va talabchan avlodning qiziqishini yanada oshiradi. Loyihani amalga oshirish uchun xorijlik mutaxassislar bilan hamkorlik qilinadi. Zamonaviy texnologik imkoniyatlardan foydalaniladi.

Sayyohlar mingan “Qo‘qon arava” hamisha yo‘lda...

Qo‘qon — Farg‘ona katta magistralining shundoq yoqasida Katta kenagas qishlog‘i bor. Qishloq bekatida tin olib, anhor bo‘yida majnuntollar ostidagi so‘lim choyxonalarda hordiq chiqarsangiz, u yerdagi oqsoqollar bilan suhbatdosh bo‘lsangiz, sayohatingiz yana ikki-uch kunga cho‘zilishi aniq. Chunki ularning hazil va kulgiga to‘la oromijon suhbatlarini tashlab hech qayerga ketgingiz kelmaydi...

— Avvallari davramizga biror mehmon yoki sayyoh kelib qo‘shilsa, darhol “Gar saloming bo‘lmasa...”, deya askiyani boshlab yuborar edik. Hozir esa “Qaysi eldansan? Gar hunaring bo‘lmasa...” degan lutf bilan kutib oladigan bo‘ldik. Chunki ular nima hunar qilishini bilgimiz, biz bilmagan ishlarni yoshlarga o‘rgatgimiz keladi. Bu ham yurt obodligiga xizmat-da! — deydi qishloq faollaridan Bahromjon ota Rahmatillayev. — Viloyatimizga keladigan sayyohlar ko‘pincha qishlog‘imizdagi Haziniy uy-muzeyini ziyorat qilish uchun to‘xtaydi. Keyingi paytlarda ziyoratdan so‘ng ularni qo‘qonarava ustasi Adhamjon Habibullo o‘g‘lining ustaxonasiga olib boradigan bo‘ldik. Hunarmand ayni paytda qishlog‘imizdagi 21-maktab huzurida to‘garak ochgan. Yog‘och o‘ymakorligiga qiziqqan barcha yoshlarga ota-bobosidan meros bo‘lib o‘tgan hunar sirlarini o‘rgatyapti. Sayyohlar tarixiy maskanlarimizdan, ziyoratgohlarimizdan o‘rin olgan qo‘qonaravaning yasalishi va o‘ziga xos tarixiga juda qiziqadi.

Oqsoqolning gapi bizda ham qiziqish uyg‘otdi. Ustaxonaga kirib borar ekanmiz, hunarmand shogirdlari bilan qizg‘in ish ustida ekaniga guvoh bo‘ldik.

— Qo‘qon yog‘och o‘ymakorligi namunalarining o‘tmishi va buguni hamisha sayyohlarni o‘ziga maftun etib keladi, — deydi Adhamjon aka. — Mehmonlar bilan erinmay suhbatlashaman. Qo‘qon aravasozlik va egar-jabduq tayyorlash bo‘yicha Markaziy Osiyoda yetakchilik qilgan. Qo‘qonarava 25-40 pudgacha yuk ko‘tara olgan va asosan, otlar yordamida manzilga olib borgan. Bu aravalardan ichki va tashqi savdoda yaxshi foydalanilgan. Xususan, XIX asr 20-yillarida Buxoroda bo‘lgan tarixchi Yegor Meyendorf “Qo‘qonlik savdogarlar Buxoroga o‘z mollarini aravada keltiradilar”, deb yozgan. Sayyohlarning qiziqishi oshib borayotgani uchun shogirdlarim bilan yog‘och o‘ymakorligi tarixi bo‘yicha alohida ko‘rgazma tayyorladik.

Shu bilan birga, xorijlik va mahalliy mehmonlar uchun qishlog‘imiz bo‘ylab “Qo‘qon aravada sayr” yo‘nalishini tashkil qildik.

Yosh hunarmandlar ishini kuzatish chog‘ida ko‘rgazmaga qo‘yilgan suratlar va ma’lumotlarga ham nazar tashladik.

Tarixchilar qo‘qonaravaning tezligi boshqa mahalliy aravalar tezligidan bir yarim barobar ziyod, muvozanat saqlash imkoniyati yuqori bo‘lganini yozadi. O‘tmishda ko‘chalarni juda ko‘p ariqlar kesib o‘tgan, bu arava esa yo‘lning qaltis joylarida ag‘anab ketmaydi. Qo‘qonarava odam sakrab o‘ta oladigan ko‘priksiz ariqlardan o‘tish imkoniyatiga ega. Qo‘qonda yer osti suvi yer sathiga yaqin bo‘lgani uchun kuz, qish, bahorda yog‘in-sochin yerga yaxshi singmay, ko‘chalarda loygarchilik uzoq davom etgan. Qo‘qonarava loyga botib qolmagan. Shunday bo‘lgan taqdirda ham uni loydan chiqarib olish oson kechgan. Boz ustiga arava daryolarning kechuv joylaridan ham oson o‘tgan.

“Yangi O‘zbekiston” bog‘iga qildim yurish...

Muqimiy tarix qa’ridan kelib, Farg‘ona shahri bo‘ylab sayr qilsa, albatta, “Yangi O‘zbekiston” bog‘iga borgan, shaharning o‘ziga xos yangi timsolidan hayratlangan bo‘lardi...

— Shahrimizning bugungi ko‘rinishi bir paytning o‘zida sharqona latofat, zamonaviy shaharsozlik va landshaft arxitekturasi an’analarini o‘zaro uyg‘unlashtirgan, — deydi viloyat hokimi o‘rinbosari Hojiqo‘zi Isoqov. — Farg‘ona shahrining janubiy sarhadlariga tutash, yaqin yillargacha bir giyoh unmagan, tosh-shag‘aldan iborat dashtda boshlangan ekoshahar — “Yangi O‘zbekiston” massivi qurilishining birinchi bosqichi yakuniga yetdi. Umumiy maydoni 300 gektar yangi shaharda bugun 2800 xonadondan iborat 75 ta ko‘p qavatli uy qurib bitkazildi. Yil oxiriga qadar yana 1500 xonadonga ega 25 ta 12 qavatli uy-joy qurish rejalashtirilgan.

Ayni paytda xitoylik investorlar tomonidan qiymati 25 million dollar bo‘lgan, Farg‘ona vodiysida yagona 30 qavatli muhtasham majmua qurilishi boshlangan. “ECO TOWER” binosidan mehmonxona, turar joy, savdo va ko‘ngilochar majmualar o‘rin oladi. Shuningdek, yaponiyalik investorlar tashabbusi bilan 3 gektar maydonda yapon bog‘i va mehmonxonasi, bir gektar maydonda zamonaviy tibbiyot klinikasi qurilyapti. Shveysariyaning “RABAT” kompaniyasi tomonidan esa 4,5 gektar maydonda zamonaviy savdo kompleksi barpo etiladi.

— Nabiralarimni yetaklab, hamma maqtayotgan manzaralarni ko‘rish uchun ekoshaharga keldik, — deydi Farg‘ona davlat universiteti dotsenti, shoira Muqaddam Husanova. — Bejiz maqtashmagan ekan, xuddi dengiz bo‘yida yurgandekman.

Ekoshahar loyihasi mamlakatimizda o‘xshashi yo‘q — noyob va mukammal yondashuv asosida amalga oshirilmoqda. Shaharcha loyihasini ishlab chiqishda ekologik toza, “yashil” iqtisodiyotga asoslangan innovatsion g‘oyalar va texnologiyalardan foydalanishga e’tibor qaratilgan. Bu yerdagi har bir uyda energiyatejamkor texnologiyalar o‘rnatilgan.

Yangi dahaning ob-havosi, muhiti, odamlari o‘zgacha. Xuddi kelajakdagi afsonaviy shaharlardan biriga kelib qolganga o‘xshaysiz. Ayni kunlarda havoni mo‘tadillashtirish, suv bilan muntazam ta’minlash maqsadida umumiy uzunligi 11 kilometrlik kanal qurilishi yakuniga yetgan. Suv resurslaridan unumli foydalanish uchun ariqlar betonlashtirildi. Daraxt va yashil maydonlarda yomg‘irlatib, tomchilatib sug‘orish tizimlari o‘rnatilgan. Hududga o‘ziga xos tarovat, fayz berib turuvchi sun’iy ko‘l va zamonaviy favvoralarni ta’riflash shart emas. Yaxshisi, yozning jazirama kunlari ekoshaharga borib, rohatlaning!

Tog‘lar bag‘ridagi so‘lim qishloq

O‘sha mashhur “Suyunchi” filmi esingizdami? Anzirat buvi vertolyotda tog‘lar orasidagi o‘zi yashaydigan qishloqqa qaytadi. Uni ko‘rgan hamqishlog‘i Xolmat buva hayratlanib: “Anziraaat! Yo alhazar! Mana shu vertolyotda sen keldingmi? Mana shu vertolyotda-ya... Bizning qishlog‘imizga-ya!”, deydi.

Hademay Shohimardon va Yordon qishlog‘idagi yurtdoshlarimiz ham Xolmat buva kabi hayratlanib, qishloq o‘rtasiga kelib qo‘ngan vertolyotdan tushayotgan sayyohlaru mehmonlarga shunday savol bersa, ajab emas.

— Davlatimiz rahbari Farg‘onaga tashrifi doirasida Quva tumanida yig‘ilish o‘tkazdi. Unda sayyohlarga qulaylik yaratish uchun Shohimardon va Yordon qishloqlariga vertolyot parvozini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha topshiriq berdi, — deydi “Shohimardon” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi Ikromjon Abduxoliqov. — Ushbu yig‘ilishda “Vodil” va “Oq-qiya” postlariga xalqaro maqom berish masalasi ham ko‘rib chiqilishi aytildi. Bu yangiliklar qalbimizga zavq va shijoat bag‘ishladi. Mahallamizdagi 60 dan ortiq uy mehmonxonasi, 30 dan ortiq dala hovlida sayyohlar uchun munosib shart-sharoitlar yaratilgan. Mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi memorial muzeyda ta’mirlash ishlari bajarilmoqda. Bu yerda ko‘hna qishloqning o‘ziga xosligi hamda tarixini aks ettiruvchi konsepsiya ishlab chiqilib, zamonaviy kutubxona tashkil etiladi.

Ha, purviqor tog‘lar bag‘rida joylashgan Shohimardon qishlog‘i o‘ziga xos ohanrabosi, tarovati bilan ajralib turadi. Ayni paytda “Hazrati Ali” ziyoratgohi hamda unga tutash hudud yanada obodonlashtirilyapti. Shuningdek, ko‘chalarni kengaytirish, yoritqichlar o‘rnatish, sayyohlar va ziyoratchilar uchun zarur infratuzilma yaratish bo‘yicha ishlar jadal davom ettirilmoqda. Qishloq markazidagi istirohat bog‘ini zamonaviy sayyohlik maskaniga aylantirish, bog‘ hududida amfiteatr qurish bo‘yicha istiqbolli loyihalar ishlab chiqilgan.

— Fransiyaning “Montagne et Neige Développement (MND)” kompaniyasi Shohimardonga keluvchi sayyohlar uchun qulay shart-sharoit yaratishni ko‘zda tutuvchi, arqon yo‘li va osma ko‘priklarni o‘z ichiga olgan ommaviy turizm maskani barpo etish loyihasini taklif qilmoqda, — deydi viloyat turizm boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari Muzaffar Temirov. — Kompaniya hududiy direktori Orxan Shirin hamda mahalliy hamkorlar bu yerda o‘tkazilgan o‘rganishlar natijasida ishlab chiqilgan istiqbolli konsepsiyani taqdim etdi. Loyiha 10 tadan kabinaga ega ikkita arqon yo‘li, 1 ta qiya ko‘targich, 1 ta osma ko‘prik, attraksionlar va boshqa ko‘plab qo‘shimcha turistik infratuzilma obyektlarini o‘z ichiga oladi. Tabiat bilan uyg‘unlik bosh g‘oya bo‘lgan loyihada oilaviy turizm imkoniyatlarini taqdim etishga ham alohida e’tibor qaratilgan.

So‘lim tabiati, zilol suvi, toza havosi, to‘rt tarafi tog‘lardan iborat maftunkor bu qishloqning Oqsuv va Ko‘ksuv soylari, mag‘rur archazorlari dilingizga huzur bag‘ishlaydi. Taningiz rohatlanadi, ruhingiz yengil tortadi, musaffo havodan to‘yib-to‘yib nafas olasiz. Shu bois, ko‘hna qishloq asrlar davomida sayohat, ziyorat maskani sifatida insonlarni o‘ziga chorlab keladi.

Muxtasar TOJIMAMATOVA,
Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbirlari

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 2533.
42368 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Iroda Toshmatova
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

O‘zA yakuni — 00:01 Topshirildi — 01:55